

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAN`ATSHUNOSLIK FAKULTETI**

**TASVIRIY SAN`AT VA MUXANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI**

**BUXORO KASHTACHILIGIDA KOMPOZITSION YECHIMLAR**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Bajardi: : 5111000 – Kasb ta`limi (amaliy san`at)**

ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabasi

Qaxxorova Mexriniso

**Ilmiy rahbar:** p.f.n. dotsent Kadirov O.M

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2020 yil

Buxoro – 2020

# **REJA**

## **Kirish**

### **I.Kashtachilik san'atining tarixi va uning rivojlanishi**

1.1.O'zbekiston kashtachilik san'ati maktablari

1.2.Buxoro kashtachilik maktablarii

1.3.Kashtachilikda naqshlarning qo'llanishi va kompozition masalasi

### **II. Kashtachilikda so'zana bajarish texnologiyasi**

2.1.Kashtachilikda ranglar ahamiyati

2.2.Kashtachilikda bezak buyumlari turlari

2.3.Kashta tikish texnologiyasi va chok turlari

### **III. Xulosa**

### **IV. Ilova**

### **V. Adabiyotlar ro'yxati**

## **MUNDARIJA**

Kirish.....
I.Kashtachilik san'atining tarixi va uning rivojlanishi.....
1.1.O'zbekiston kashtachilik san'ati maktablari.....
1.2.Buxoro kashtachilik maktablari.....
1.3Kashtachilikda naqshlarning qo'llanishi va kompozistion masalasi.....
II. Kashtachilikda so'zana bajarish texnologiyasi.....
2.1.Kashtachilikda ranglar ahamiyati.....
2.2.Kashtachilikda bezak buyumlari turlari.....
2.3.Kashta tikish texnologiyasi va chok turlari.....
III. Xulosa.....
IV. Ilova.....
V. Adabiyotlar ro'yxati.....

## KIRISH

Xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchiligi an'analarini tarixdan avloddan - avlodga o'tib kelish bilan birga taraqqiyotni yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon ayniqsa, hozirgi davrda yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Shahar va kishloqlarda yashovchi yoshlarni sevimli kasb va xalq amaliy san'atidan kulolchilik, yogoch o'ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik, kandakorlik, zargarlik, chitgarlik, gilamchilik, kashtachilik va hoqazolar avloddan-avlodga o'tib kelayotgan kasblardandir. Bu kasblar kishilarni ma'naviy olamini boyitish, badiiy didini shakllantirish estetik didini tarbiyalaydi.

Hozir Respublikamizni barcha viloyatlarida tiklanib borayotgan hunarmandchilik va amaliy san'atning noyob turlari rivojlantirilmoqda. U o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichida ko'p yillar va asrlar bosib o'tgan, goh yuksalgan, goh pasaygan, lekin unda badiiy an'analarning avloddan - avlodga o'tishi hech qachon to'xtamagan. O'zbekiston o'zining kashta chevarlari bilan mashxur va xalq san'atining ko'p asrlik an'analarni ardoqlab, asrab kelmoqda. Shuningdek, an'analarni saqlabgina qolmay, ijodiy boyitib amaliy san'atning yangi milliy turlarini yaratib kelmoqda.

Kashtalar uylar va kiyim- kechaklarni bezash uchun qo'llanilgan. Ular qadim zamonlardan beri o'zbek xalqi orasida keng yoyilgan. Uy devorlari, taxmonlar, ko'rpa - to'shaklar, har xil mayda uy - ro'zg'or buyumlari, kiyim - kechaklarning ayrim qismlari kashta bilan bezatiladi, bosh kiyimlarga ham kashta tikiladi. Uylarning devorlarini bezatadigan palaklar, so'zanalar, gulko'rpalari, zardevorlar O'zbekistondan tashqarida ham mashxurdir. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi, Bel'giya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga

aylanib qolgan.Xozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang – barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda.

Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muxit bilan bog'liq xolda barcha kasb – hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. 14–15 asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashtalarini ko'rganini kundaligida yozib koldirgan. 1467 yili Kamoliddin Bexzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

Qadimdan ipakchilik rivojlangan vatanimiz hududida nafis ipak iplar bilan kashta tikish xalq orasida keng tarqalgan. Kashtachilik hunari o'zining ko'p asrlik rivojlanishi tarixida xalq turmushi, uning an'anaviy yashash tarzi, urf-odati, jo'g'rofik o'rni bilan o'zaro chambarchas bog'langan. Kashtachilik hunari bilan ayollarning deyarli barchasi shug'ullanishgan. Qiz bola yoshligidan boshlab, kashta tikishga o'rgatilgan. Shunisi muhimki, hunarmandchilikning boshqa turlarida shogirdlik mashaqqatini uzoq muddat bosib o'tishga to'g'ri kelsa, kashtachilik maxsus bilimni talab qilmagan.

Kashtachilik san'ati o'zbek ayollari ijodida eng ommaviy hunar sanalib, u oddiy xalqning estetik dunyoqarashini aks ettiribgina qolmay, xalq og'zaki folklori bilan o'zaro uzviy bog'langan. Kashtachilikning boshqa hunarlardan farqi shundaki, aksariyat hollarda kashtachilik buyumlari bozorga mo'ljallanmagan, asosan xonardon extiyojini qondirish, urf-odatlarni davom ettirish uchun tikilgan. Shunday qilib an'anaviy kashtachilik o'zbek xalqi hayotining hamma jabxalarini qamrab olgan va moddiy madaniyatning buyumlari va ashyolaridan bo'libgina qolmay, balki xalqning dunyoqarashi va milliy tafakkurining chuqr qatlamlarini aks ettirgan.

Respublikamizning istiqlolga erishishi, yo'qolib borayotgan qadimgi milliy an'anaviy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atini qayta tiklashga va unga yosh avlodni qiziqtirishga keng yul ohib berdi. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va milliy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffak bo'ldi”<sup>2</sup>.

Ayni paytda qadriyatlarimizni boyitish, milliy mustaqillik mafkurasini shakllantirish jarayonida an'anaviy xalq hunarmandchiligi va amaliy san'ati tarixini o'rganish, ko'plab yo'qolib ketgan turlarni qayta tiklash xalqimizning beba ho merosini dunyoga tanitishga xizmat qiladi. “Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb xisoblaymiz.”<sup>3</sup>

Qadimdan ipakchilik rivojlangan vatanimiz hududida nafis ipak iplar bilan kashta tikish xalq orasida keng tarqalgan. Kashtachilik hunari o'zining ko'p asrlik rivojlanishi tarixida xalq turmushi, uning an'anaviy yashash tarzi, urf-odati, jo'g'rofik o'mi bilan o'zaro chambarchas bog'langan.

Kashtachilik hunari bilan ayollarning deyarli barchasi shug'ullanishgan. Qiz bola yoshligidan boshlab, kashta tikishga o'rgatilgan. Shunisi muhimki, hunarmandchilik ning boshqa turlarida shogirdlik mashaqqatini uzoq muddat bosib o'tishga to'g'ri kelsa, kashtachilik maxsus bilimni talab qilmagan. Kashtachilik san'ati o'zbek ayollar ijjodida eng ommaviy hunar sanalib, u oddiy xalqning estetik dunyoqarashini aks ettiribgina qolmay, xalq og'zaki folklori bilan o'zaro uzviy bog'langan. Kashtachilikning boshqa hunarlardan farqi shundaki, aksariyat hollarda kashtachilik buyumlari bozorga mo'ljallanmagan, asosan xonardon ehtiyojini qondirish, urf-odatlarni davom ettirish uchun tikilgan.

1. “Xalq hunarmrndchiligi va amaliy san'atni davlat tomonidan har tomonlama qo'llab – quvvatlash to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov farmoni 31 mart 1997 yil.

2. I. A. Karimov “O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” O'zbekiston “Toshkent. 1997 yil. 137 bet

3. I. A. Karimov «O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida.» T. , 1997 yil. 137 bet.

## **Mavzuning dolzarbliги.**

Amaliy san'at o'zining spetsifik xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfnинг ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu - istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oljanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuqlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lган ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi. Bizning mamlakatimizda amaliy san'at tarbiyaning kuchli vositasi bo'lib, kishilarni ilg'or qarashlar bilan qurollantirishda, mustahkamlashda, ularning kelajakka ishonchi va kommunistik axloq asoslarini mustahkamlashda muhim o'rinni egallaydi. Ijodkorlarimizning, haqqoniy va hayotbaxsh g'oyalar bilan sug'orilgan asarlari, insonoyat uchun shodlik va ilhom manbai hamda axloqiy tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

### **Tadqiqot maqsadi va vazifasi:**

Mazkur bitiruv malakaviy ishi kashtachilikda Buxoro kashtachiligidagi kompozitsion yechimlar bag'ishlangan bo'lib, barcha amaliy san'at fani o'qituvchilari, san'at kollejleri, o'rta umumta'lim maktablari va to'garak o'quvchilarining ushbu san'at sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishga qaratilgan. Kelajakda yoshlarni avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analar asosida voyaga yetkazishni maqsad qilib qo'yadi.

**Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi** – amaliy san'at turlarini, uning texnologiyasini o'rganib chiqib, qiyosiy tahlil qilishdir. Maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator aniq vazifalar qo'yilgan: Kashtachilik san'ati tarixiga bir nazar, Buxoro kashtachilik san'ati maktabining tahlili, kashtachilik san'atida ramziy naqshlar ma'nosi, kashtachilikda bezalgan sovg'abob buyum turlari. Shular bilan bir qatorda, kashtachilik san'atida qo'llaniladigan asbob-uskunalar va ipak turlari, sovg'abob buyumlarni kashtachilikda bezashda kompozitsiya qonuni, ipakni tabiiy

ranglarga bo'yash texnologiyasi, kashtachilikda ranglar simvolikasi va rang tanlash hamda kashtachilikda sovg'abop buyum tayyorlash texnologiyasidir.

### **Tadqiqot ob'yekti:**

O'rta umumta'lim maktablarida va maktabdan tashqari muassasalardagi amaliy san'at to'garaklari tashkil qilish, dars jarayonida va to'garaklarda amaliy san'at tarixi va texnologiyasi, xususan kashtachilik san'atiga b'olgan qiziqishlarini yanada oshirish, dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan keng ko'lamda foydalanish va amaliy san'at turlarini yoshlarga o'rgatishda qo'llash jarayoni.

### **Tadqiqot predmeti:**

Xalq amaliy bezak san'atining kashtachilik san'atiga oid to'garaklarni tashkil etish shakllari va uslublarini ishlab chiqish va amalda qo'llash. Yoshlarga O'zbekistonning mashhur hunarmand ustalari haqida keng ma'lumot berish va ish uslublari bilan tanishtirish va ularga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiyalash.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Amaliy san'at fanidan to'garaklarini yangi zamonaviy uslubini ishlab chiqarish, unda o'quvchilarga o'rgatish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va amalga tadbiq qilish, tarixiy muzeylarha, mashxur rassomlarning uy muzeylarida ekskursiyalar tashkil qilish, rassomlar bilan uchrashuvlar va mahorat darslari tashkil qilish.

## Kashtachilik san'atining tarixi va uning rivojlanishi

O'zbek milliy kashtachiligi amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta (fors tilida – chizilgan, tortilgan) amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi: igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda xam shuxrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, suzana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afgoniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Fargona vodiysida faqat xonardonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozistiyaga aylanib qolgan. xozirgacha buyumlar uziga xos guzallik, nafis bezaklarning rangbarangligi bilan kishilarni xayratga solib kelmoqda.

Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muxit bilan bogliq holda barcha kasbxunarlari bilan birgalikda rivoj topgan.

Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV—XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini kurish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida O'zbek milliy kashta bezaklarini qo'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Bexzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani xam aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi.

Mashinada kashtalarining ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiyiligiga putur etkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim



xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afgon, Qozoq, Qirg'iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz. Xalq badiiy xunarmandchilik maxsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarida xam cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashxur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni usha erda kashf etishgan.

Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach ipak, zar eki jun ip ko'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuxrat qozongan. Kashtachilik san'atining an'analari Vizantiyada xam rivoj topgan.

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lган xamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan Usmoniy turklar xam ushbu san'atga uzlarining munosib ulushlarini kushganlar. Qirm va Kavkazning qaeridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa. Ushu erda kashtachilik rivojlanaverган. Qadimgi Rus xam Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san'atini o'rgangan. Rus kashtasi gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko'ra juda turlitumandir. Popok (yurma) chokli kashta tikish Olonets. Vologda viloyatlarida keng tarqalgan.

Bu san'atda xar bir millatning uziga xos eng kup kullaydigan nakshlari buladi. Chunonchi O'zbek kashtalarida usimliksimon, geometrik xamda gul nakshlari kup bulsa, rus kashtachiligida geometrik, usimliksimon shakllar, gullar, kush va mevalar kup tasvirlanadi. Qozoq va Qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchiligi an'analalarini tarixdan avloddan-avlodga o'tib kelish bilan birga taraqqiyotni yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon ayniqsa, hozirgi davrda yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Shahar va qishloqlarda yashovchi yoshlarni sevimli kasb va xalq amaliy san'atidan kulolchilik, yog'och o'ymakorlik, ganchkorlik, naqqoshlik, kandakorlik, zargarlik, chitgarlik, kashtachilik va hokazolar avloddan- avlodga o'tib kelayodgan kasblardandir. Bu kasblar kishilarni

ma’naviy olamini boyitish, badiiy didini shakllantirish esgetik didini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o’zbek xalq amaliy sanatiy kishilarni badiiy-axloqii jihatdan tarbiyalab, ularning estetik dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Hozir Respublikamizni barcha viloyatlarida tiklanib borayotgan hunarmandchilik va amaliy sanatning noyob turlari rivojlantirilmoqda. U o’zining tarixiy taraqqiyot bosqichida ko’p yillar va asrlar bosib o’tgan, goh yuksalgan, goh pasaygan, lekin unda badiiy an’alarning avloddan- avlodga o’tishi hech qachon to’xtamagan.

O’zbekiston o’zining ko’pgina chevarlari bilan mashhur va xalq san’atining ko’p asrlik an’alarini ardoqlab, asrab kelmoqda. Shuningdek, an’alarini saqlabgina qolmay, ijodiy boyitib amaliy san’atning yangi milliy turlarini yaratib kelmoqda. Kashtalar uylar va kiyim-kechaklarni bezash uchun qo’llanilgan. Ular qadim zamonlardan beri o’zbek xalqi orasida keng yoyilgan. Uy devorlari, taxmonlar, ko’rpa- to’shaklar, har xil mayda uy-ro’zg’or buyumlari, kiyim kechaklarning ayrim qismlari kashta bilan bezatiladi, bosh kiyimlarga ham kashta gikiladi. Uylarning devorlarini bezatadigan palaklar, so’zanalar, gulko’rpalar, zardevorlar O’zbekistondan tashqarida ham mashhurdir.

Qadimiylar an’analarga ko’ra o’zbek qizlari – bo’lajak kelinchaklar seplari har xil kashtachilik buyumlarini o’zlari tayyorlaganlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo’lsa qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7 – 9 yoshdan boshlab kashta tikishga o’rgatilar edi. Ular 3 – 4 yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar.

## **O’zbekiston kashtachilik san’ati maktablari**

**Kashtachilik** – O’zbekiston amaliy bezak san’ati turlari orasida o’zining qadimiy an’analariga ega bo’lgan san’at turi hisoblanib O’rta Osiyoning yirik savdo hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. San’atning ushbu turi o’zining poetik rang – barangligining saqlab qolishi bilan birga xalq orasida qadrlanib, o’z mohiyatini yo’qotmadi. Kashtachilik asosan 6 ta hududiy guruhlarga, ya’ni maktablarga bo’linadi. Jumladan, Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrисabz, Toshkent hamda Farg’она kashtachiligi maktablaridir.

Kashtachilikning yirik markazlaridan biri sanalgan **Nurota** asrlar mobaynida kashtalarning mukammalligi, aniq ifodaliligi, tasvir aniqligi, o’simlik naqshlarining serjilvaligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. XIX asrda Nurota kashtalari gulli guldstalar bilan bezatilib matoning oq foniga tig’iz to’ldirilmagan. Nurota kashtachiligi o’zining gullarning serjiloligi Kompozistiyaning bunday turi Nurotada “Chor shohu yak moh” – “4 ta shohu bitta oy” degan ma’noni anglatadi. Shu turdagи so’zanalarga XIX asrning o’rtalarida Nurota kashtachiligi tomonidan yaratilgan, hozirgi kunda esa O’zbekiston Davlat San’at muzeyida saqlanib kelinayotgan ajoyib so’zana o’zgacha engilligi va gulli naqshlarning serjilvaligi bilan ajralib turadi.

So’zana ornamentining ayrim joylarida guldstali guldonlar hamda guldstaning o’rtasida anor shaklini ko’rishimiz mumkin. Mallarang, tillarang, havorang, pushti, nofarmon och yashil ranglar bir – birlari bilan uyg’unlashib, so’zanaga o’zgacha bag’ridillik baxsh etadi. Naqshlari romb shaklida tuzilgan hamda tishli barglar bilan bezatilgan.

(“Tobadoni” – katakli, panjarali) so’zanalar ham Nurota kashtachiligining yana bir turi hisoblanadi. Uning kataklari shoxli barglar, shoxli gullar va kosagullar, hamda qushlar va hayvonlarning shakli bilan to’ldirilgan.

Shunday so’zanalar ham borki, ular mato fondidan ayrim gulli motivlar shaxmat tarzida joylashgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Nurota kashtachiligidagi keskin pasayishi seziladi.

Gulli motivlar detallarning rang – barangligini yo’qotib, bir xil doiralarga aylanib qoladi.

Nurota kashtalari asosan “bosma” uslubi bilan tikiladi va naqshlarning cheti zanjirsimon uslub bilan aylantiriladi. Kashta ranglari och ranglar bilan tikilgan. Nurota kashtachiligidagi quyidagi kashta turlari va badiiy buyumlar tikiladi: so’zana, nimso’zana, takiyapo’sh, joynamoz, joypo’sh, zardevor, gulko’rik, dastorpech, belbog’, qo’lro’mol, yostiq, oynaxalta, choyxalta, choyshab. Kashta asosan bo’z, chit, satin, shoyi, baxmal movutga tikiladi. Iplari ipakdan yigirilib, bo’yoqlari tabiiy o’simliklardan olinadi.

Lekin hozirgi kunda sun’iy toladan yigirilgan va kimyoviy bo’yoqlar bilan bo’yalgan iplar kashtachilikda ishlatilmoqda.

Nurota kashtalarini engil, yorqin tonlar: qum, oltin, havorang, malina, pushti, och ko’k roangli iplari bilan tikilgan.

**Samarqand** kashtachiligi yorqin va o’ziga xosligi bilan alohida ahamiyatga ega. Buxoro, Nurota, Shaxrisabz kashtachiliginin an’anariga yaqin bo’lishiga qaramay Samarqand kashtachilik maktabi o’zining badiiy mahobatliligi, ranglarining qat’iyligi, tozaligi, shakllari harakatchanligi bilan alohida ajralib turadi.

Samarqand kashtalari Nurota va Buxoro kashtalaridan farq qiladi. Ularning guli yirik va uyg’undir, hamda ko’pincha “bosma” chok qo’llanilgan. Samarqand kashtalarining asosiy motivi barglar bilan o’ralgan doira – turunjdan iboratdir. Eski kashtalar kishiga nozikligi va gullarining xilma – xilligi , batartibligi hamda ranglarining bir – biriga monandligi bilan ta’sir etsa, yangi kashtalar kishilarni formalarining kuchi o’ynoqligi, dadilligi, ifodaliligi va gullarining rango rangligi bilan kishini maftun etadi.

Samarqand kashtalarida mahobatlilik va fikrini ochiq ijod qilishi sezilib turadi. Buni doira – turunjlarining aniq ritmik, qora jimgilarining aniq, erkin soyalari ta’minlaydi.

O’rta Osiyoning qadimiyligi shaharlaridan biri **Shahrisabz** kashtalari diqqatga sazovordir. Shaharda ko’zlarini yashnatuvchi gullar va yaxshi o’simliklar ko’p

bo’lganligi uchun u “yashil shahar” nomini olgan. XIX asrda Shahrисabz Buxoro amirligi tarkibidagi bekliklardan biri edi. Beklar va amirlar saroylari kashtalarga buyurtma beruvchi asosiy iste’molchilar edi. Shuning uchun Shahrисabz ayollari mayda kashtachilik mahsulotlaridan sanalgan so’zana, to’n, shuningdek, ot yopg’ichlariga bezaklar tikishar edi. Shahrисabz kashtalari shahar muhitining estetik didini aks ettirdi. Chunki ular saroy ustaxonalarida ishlagan ustalar va rassomlarning ijodiy ishi.

Xalq bezagi an’analari shahar kashtachiligi uchun asos bo’lgan.

O’rtada gul ko’rinishidagi asosiy nishon, uning atrofida turli naqshinkor gul shaklidagi bezaklarni tushirib, ishlov berish shahar kashtalarining asosiy xususiyati edi.

Odatda, asosiy markaziy va eniga ko’ra kashtaning o’rta qismidagi qayishmaydigan 2 ta ingichkaroq qo’shimcha hoshiya qatordan iborat.

Bunday kompoziston qurilmalar gilamlar uchun xos bo’lgan kashtalar tayyorlash uchun qo’lda tikilgan paxta yoki moyi mato shuningdek, ipak va jun iplardan foydalanilgan. Shahar kashtalari yuqori sifatliligi bilan ajralib turgan.

Shahrисabz chevarlari kandaxayon chokidan ko’proq foydalanilgan.

Shuningdek, ular bosma, yo’rma, iroqi choklari ham ishlatilgan.

Tadqiqotchilar, Shahrисabz kashtalari gul bezaklarining mo’lligiga ko’ra Buxoro va nurota kashtalariga yaqin turadi. Bunda tag matoning ayrim qismlarigina ochiq qolgan. Kashtachiligidagi hamda saroy san’atida keng tarqalgan edi. Ular Shahrисabz yodgorliklari me’moriy bezaklarida ham o’z aksini topgan. Shahrисabz kashtachiligi uchun hoshiyaga tushiriladigan chohor, chiroq usuli xos xususiyat hisoblanadi. Bu usul turmushda ishlatiladigan chiroq shakliga monand ishlangan. Shahrисabz kashtalarida ko’p sonli gul bezaklari orasida bir qarashda ko’zga tashlanmaydigan qumg’on, xo’roz, anor kabi tasviriy vositalar ko’p uchraydi.

Toshkent Davlat san’at muzeyi kollekstiyasida saqlanayotgan XIX asr oxiriga oid kashta bunga misol bo’la oladi. Shahrисabzning bu qadimiy kashtasi ko’pgina maqola bu yoki tadqiqotlarda tilga olinadi. Bu kashta faqat bezakdorligi va tasvir qatori bilangina emas, balki qo’shimcha qiya hoshiya bo’ylab, arab

harflarida tilak ifoda etilgan yozuvi mavjudligi bilan ham e'tiborni tortadi. Shahrisabz bezakchiligida keng tarqalgan yo'nalishlardan biri ko'p mayda gullar bilan bezatilgan gullayotgan novda ko'rinishdir.

Kashtachilik o'zaro qarama – qarshi ranglar bilan kashtaning go'zal bo'lib ko'rinishiga erishgan. XIX asr so'ngida anilin bo'yoqlaridan foydalanish Shahrisabz kashtalari sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Garchi kashta tikishda safsr moviy rang, yashil kabi ranglardan foydalanish imkoniyati paydo bo'lган bo'lsada, kashtalari o'zigagina xos bo'lган tabiiy ranglarning nozik uyg'unligidan mahrum bo'ldi. Xususan, to'q qizil rangni och ko'k bilan yoki yorqin qizil rangni sariq rang bilan ishlatish odat bo'lган.

Yana bir kashtachilik markazlaridan biri **Toshkent** kashtasi hisoblanadi. Toshkent kashtalari ikki tipga bo'linadi: bu palak va gul ko'rpadir. Toshkent kashtachiligidagi palak va gulko'rpalarni bezashda ko'p mativlar masalan, yulduz, katta – katta doiralar, gulli shaxchalar ishlatilardi. Tikishda asosan "bosma" chok qo'llaniladi. Toshkent palaklarining kompozistiyasi to'q qizil rangli bir – bir tekis tikilgan doiralardan iborat.

Doiralarning soniga qarab masalan "olti oylik kapalak", "o'n ikii oylik kapalak" va hokazo deb yuritiladi. Gul esa markazdagi yulduz yoki doira va gulli shoxlardan iborat bo'lib, fonining ko'p eri tikilmaydi, bo'sh qoladi. Hozirgi kunda Toshkent kashtalari butunlay o'zgarib ketdi. Doiralar soni kamayib, o'lchami kattalashdi, ular qatori o'rnini yangi usuldagi bitta katta doira egallaydi. Bunday palaklar "oy palak", "qiz palak" va "tohora palak" deb ataladi. Ular bir tekis fonida ochiq joy qolmaydigan qilib tikiladi. Kashta ranglari bir – biriga umuman qarama – qarshidir.

Kashta ranglari bir – biriga umuman qarama – qarshidir. Kulrang chiziqlar tikilgan, qolgan joylari bir tekis to'q qizil rangli iplar bilan to'ldirilgan.

**Farg'ona** vodiysi kashtachiligi ham eng diqqatga sazovor kashtachilik markazlaridan biri hisoblanadi. Farg'ona vodiysi - kashtalar shoxsimon grafik gul yoki konstentrik aylanalardan, doira turunjlaridan iborat bo'lган va yaxshi

yigirilgan ipak bilan “vosita” chokda tikilgan, shuningdek kompozistiyasi fonida ko’p bo’sh joy qolishi bilan ajralib turadi.

Farg’ona kashtalari to’q ko’k yoki binafsha rang shohi va satinlarga tikilgan bo’lib, gullar yuzaga erkin joylashgan va ular juda nafisliligi bilan ajralib turadi. Ro’yjo uchun qayrishma gulli kungurali buta motivlarining qaytarilishi xarakterlidir. Farg’ona kashtasi asosan qora fonga yorqin ipaklar bilan tikilgan, qizil malina rang gulli oq qizil malina rang oq sariq butalarning galma – gal qaytarilishi natijasida rangdor ritmli hosil qilinadi. Hamda Farg’ona do’ppilarini eslatadi.

Mahalliy kashta maktablari orasidagi farqni gapirar ekanmiz **Surxondaryo** kashtachilik san’ati bilan ham tanishishni joiz topdim. Surxondaryo kashtalari o’troq va ko’chmanchilik madaniyatining qorishuvini ifodalovchi ranglar jilosi, kompozition tuzilmasi, bezak lavhalari tizimida o’z ifodasini topadi. Surxondaryo kashtachiligidagi XX asr birinchi yarmida o’simlik va geometrik bezaklardan keng foydalanilgan. Ilon izi chiziqlar, gullar tasviri, qo’chqor shoxlari to’lqin ko’paytiruv alomatlari shular jumlasidandir.

Hozirgi paytda O.Shoyqulova, N. Qurbonova, U.Jo’raeva, Z.Murodova kabi Surxondaryolik kashta chevarlar an’anaviy kashtachilik davomchilari hisoblanishadi. Ular o’ziga xos unsurlarni saqlagan holda kashtachilikda lola gul, egizgul, oygul, paxta gul kabi zamonaviy talqinlarni qo’llamoqdalar. Surxondaryo viloyatining Boysun degan tumanidagi deyarli har bir uy o’ziga xos xalq madaniyati. Ularga mayda nuqtalar tushirilgan yoki qush va jonivorlar shakli qo’shib tikilgan.

So’zanalar o’ziga xos alohida boy manzarani namoyon etgan, ularda dunyoning yaratilishi, tabiat, baxt va muhabbat haqida asrlar davomida yuzaga kelgan tasavvurlar she’riy shalda aks ettirilgan. O’rtada odatda, aks quyosh va oyni mejozit aks ettiruvchi ulkan doiralar joylashadi. Doiralar oralig’ida bodomgul, lolagul, atirgul kabi ismli naqshlar erkin joylashgan, butalarda qaldirg’och va bulbullarning turli maqomdagi tasvirlari aks ettirilgan.

Butun manzara she’riy ramzni namoyon etib turadi. Xalq ustalari, jannatni ana shunday tasavvur qilishadi. Manzaraga qanotli jonzotlar shakli kiritilishi bejiz emas, kashtachilar ularni farishtalar deb atashadi. So’zana chetlaridan “obiy – suv yo’li” o’tadi, u go’yo ertaklar olamini ramziy tarzda chegaralab turadi.

Joynamozlarning bezagi ma’lum darajada cheklangan – namozxon oyog’i turadigan joy odamda gulsiz qoladi. Chetlar esa gul bilan bezatiladi. Surxondaryo viloyatining boysun degan tumanidagi har bir uy o’ziga xos xalq madaniyati muzeyiga ega bo’lib, ularda xilma – xil kashtachilik buyumlari, gilamlar, kigizlar namoyish etilgan.

2003 yilning yozi va kuzida Boysunning Ko’chkak, Bog’ibola, Labisoy, Ariqusti, Machay, To’da, Duoba, Och machit, Dadband kabi qishloqlariga qilingan bir qancha ekspedistiyalar natijasida qayd etilgan kashtalarning asosiy tarkibi 1960 yillardan hozirgi vaqtgacha yaratilgan buyumlarni o’z ichiga oladi. Ularni orasida eng ko’p tarqalgan buyumlar borpo’li, bo’g’jama, zardevor, joynamoz, bolinpo’sh, belbog’, oynaxalta, choyxalta, so’zana va hokazolar sanaladi. Yorqin kalorit va o’ziga xos gullar Boysun kashtalarining yorqin ko’zga tashlanuvchi xususiyatlaridir.. Qizil, yashil, sariq, ko’k ranglarining mo’lligi hayratomuz engillik va nafislik ila Boysun kashtalarida ajoyib uyg’unlik kashf etadi.

O’zbekistonning boshqa tumanlarida bo’lganidek, Boysun kashtachiligidagi ham ishslash va handasaviy naqshlar ustunlik qiladi. Joynamozlarda ko’pincha anor va lola tasviri aks ettiriladi. Choyxalta, oynaxalta, belbog’, dastro’mol va sochiqlar ham gul bilan to’ldirilib chiqiladi.

Kashtachilik san’atining qadimgi maktablaridan bo’lmish **Buxoro** viloyatining milliy kashtachilik, san’atini o’ziga xos xususiyatini, tabiiy bo’yoqlarini qo’llanilishi texnologiyasi va bezaklarining qadimiy nusxalarini tikilishi, shu kunda xalqimiz diqqat e’tiborini o’ziga tortdi.

**Shahrisabz kashtachilik san’ati** XIX asrga kelib, o’ziga xosligi, an’anaviyligi bilan O’rta Osiyoda shuhrat qozondi. Uning qadimgi nusxa kompozitsiyalari ko’p

jihatdan gilam ko‘rinishini eslatadi. Islomiy naqsh – to‘p barg, gulli, ko‘ngirali “Hirot zanjirlari” Shahrисabz so‘zanalarida uchraydigan naqshlarga ham tegishlidir. Shaxrisabz kashtachiligi asosan “iroqi” uslubida tikilsa-da, unda “yo‘rma” va “kandaxayol” choklaridan keng foydalanilgan. Kashtaning hoshiyalarini va markaziy maydonini ajratib turuvchi “oba” chiziq yo‘llari ham ana shunday uslubda bajarilgan.

O‘sha vaqtarda beklar va amirlar saroylari kashtachilik namunalariga buyurtma beruvchi asosiy iste’molchilardan hisoblanar edi. Shu bois bu milliy mahsulot ko‘pincha shahar muhiti va tarovatining estetik didini o‘zida aks ettirgan. Ma’lumki, ulug‘ sarkarda Amur Temur ham o‘sha vaqtarda boshqa yurtlardan eng yaxshi naqqosh va hunarmandlarni olib kelganligi bois shaharda hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Natijada Shahrисabz kashtachiligidagi ham naqqoshlik, o‘ymakorlik bilan bog‘liqlik, gul shakllarining tushurilishi, barg naqshlari bilan boyitilgan o‘simlik shakllarini ifodalovchi bezak uslublari yaxshi rivojlangan va haqiqiy bezak kompozitsiyalarini, xalqona shakllarni o‘zida mujassamlashtirgan tasvirlar paydo bo‘lgan.

Kashtalarini tayyorlashda qo‘lda tikilgan paxta yoki shoyi matodan, shuningdek, ipak va jundan foydalanilgan. Shu tariqa kashtachilikning rivojlanishi tufayli Shahrисabzda hunarmandchilikning bu turi o‘z rang-barangligi, serjiloligi hamda sifatliligi bilan dovrug‘ qozongan.

Tadqiqotchilarining aytishicha, Shahrисabz kashtasi gulbezaklarining ko‘pligiga ko‘ra, Buxoro va Nurota kashtachilik namunalariga yaqindir. Nurota kashtachiligidagi gul tasvirlariga nazokat va nafislik baxsh etuvchi erkin tagligi katta o‘rin tutsa, Shahrисabz kashtachiligidagi taglikni to‘laligicha naqsh bilan bezash yoki bezakning bir tekisda taqsimlanishi yanada yorqin aks etadi. Shu sababli Shahrисabz kashtachiligining asosiy va qo‘shimcha bezaklari boy va turli tumanligi, jozibali va serqirraligi bilan ajralib turadi. Barglar va gul zangilaridan iborat cheksiz bu manzara mo‘l ko‘lchilik, jo‘shqinlik, bahor va hayot ramzlarini ifodalaydi.

Shahrisabz bezakchiligidagi keng tarqalgan yo‘nalishlardan biri, ko‘plab mayda gullar bilan bezatilgan novdalarning ko‘rinishidir. Bu uslub xalq kashtachilik san’ati hamda saroy san’atida ham keng tarqalgan. Ular Shahrisabz yodgorliklari va me’moriy bezaklarida ham o‘z aksini topgan. Ko‘p bargli bezakning o‘zi ham Sharq xalqlarida quyosh belgisini ifodalaydi.

To‘yga atab tikilgan kashta va so‘zanalarida ham hayot, quyosh, hosildorlik ramzlari aks etadi. Kashtalarning rangi bezak sifatlarini kuchaytiruvchi yorqin ranglar jilosi bilan ajralib turadi.

XIX asr o‘rtasida anilin buyoqlaridan foydalanish Shahrisabz kashtalari sifatiga salbiy ta’sir qildi. Garchi kashta tikishda safsar, moviy, yashil kabi ranglardan foydalanish imkoniyati paydo bo‘lgan bo‘lsada, kashtalar o‘ziga xos bo‘lgan tabiiy ranglar uyg‘unligidan mahrum bo‘ldi. XIX asr oxirlariga kelib, Shaxrisabz kashtalari xalq san’atining noyob asarlari darajasiga yetdi va temuriylar davridan beri saqlanib kelayotgan an’anaviy madaniyatning nechog‘li betakror bo‘lganligini yana bir bor isbotladi.

## Buxoro kashtachilik maktablari

O’rta Osiyoda ipak iplar bilan kashta tikish san’ati eng qadimgi hunar hisoblanadi. Shu jumladan, bu hunarning qadimgi maktablaridan biri Buxoro an’anaviy kashtachiligi ham juda qadimdan rivojlangan. Eramizning II asridan boshlab O’rta Osiyoga Xitoydan ipak keltirilgan. Eramizning IV asrida Vizantiyaga pilla va ipak qurti keltirilib, ipak etishtirila boshlaganligi to’g’risida ma’lumotlar bor. Buyuk ipak yo’lida joylashgan Buxoroda ham shu davrlarda ipak qurti keltirilib, ipak ishlab chiqarish boshlangan bo’lsa ajab emas. Mahalliy sharoitda etishtirilgan xom ashyodan mahsulotlar tayyorlash boshqa hunarmandchilik turlarini rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Pillaga ishlov berib, olingan ipak toladan shoyi, atlas, banoras, alocha, adres va boshqa matolar tayyorlash bilan birga, matolarga kashta tikish ham rivojlangan. Eng qadimgi “yo’rmado’zi” uslubida tikilgan kashta eramizdan avvalgi V asrga mansub bo’lib, u Xitoyda topilgan.

O'rta Osiyo xalqlari asrlar bo'yи yaratgan xalq amaliy san'ati namunalari dunyoda katta shuxrat qozongan. U o'zining xilma – xilligi bilan alohida ajralib turadi. Yog'och, ganch o'ymakorligi va naqqoshligi, kulolsozligi, zargarligi, chitgarligi, gilambofligi, zardo'zligi, kashtachiligi shular jumlasidandir.

Xalq amaliy san'atini boshqa turlarida ijod qiluvchi usta maxsus o'qilib, uzoq va mashaqqatli shogirdlik davrini o'tashi kerak bo'lsa, kashtachilik san'ati bilan har bir ayol o'zicha shug'ullangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, kashtachilikda ko'proq xalqning ichki dunyosi, estetik dunyoqarashi aks etgan. O'rta Osiyo xalqlarida kashta bilan uyni va kiyimlarni bezash keng tarqalgan. Devoriy namoyonlar, so'zanalar, joypo'sh, takiyapo'sh, joynamoz, ruijo, zardevor, sandalipo'shlardan tortib, to jullaru dourilargacha, do'ppi, kulox, peshkurta, jiyak, etik, maxsi va kovushlardan tortib, oynaxalta, taroqxaltalargacha kashtachilik bilan bezatilgan.

Hozirgacha ham xalqimiz orasida juda ko'p tarqalgan xalq amaliy san'atining turlaridan biri kashtachilikdir. Turmushda keng qo'llanilgan so'zana, joypo'sh, joynamoz, takiyapo'sh, aksariyat qo'lida: "yo'rma", "bosma", "iroqi" kashtachilik usuli bilan bajarilgan.

O't mishda O'rta Osiyoning ba'zi bir tumanlarining tarixiy va etnik rivojlanish sharoitlari, o'zlarining yaqqol xususiyatlariga ega mahalliy maktablarning vujudga kelishiga olib keldi. Do'ppisining guli yoki kiyimiga qarab o'tkinching qaerlik ekanligini, uylariga osilgan kashtalariga qarab esa xonardon soxibasining yoki uning onasining kelib chiqishini xatosiz bilib olish mumkin.



Kiyim – kechak va turar joyni bezashda milliy kashtachilikning munosib o’rni bor. Ayollarimiz, ayniqsa kelinlar va yosh juvonlarning kiyimlari bashang bezatilgan.

Qiz bola yoshligidan boshlab qo’lro’molcha, sochiq, oyna xalta, jiyak – zey, do’ppi va boshqa mayda kashtalar tikib, tajribasini kundan – kunga oshirib borgan. Kelinga keltirilgan dasturxonlar kuyov tomonga qaytarilganda, albatta bo’lajak kelin tikkan kashtachilik buyumlari bilan qaytarilgan. Ular orasida kuyov uchun do’ppi, qo’lro’molcha va sochiqlar bo’ladi. Kashta tikayotgan chevarlar qalblaridagi beg’ubor orzu va istaklarini rang — barang ipak iplardan go’zal naqshinkor gullar tikib izhor etganlar.

Ayollar uchun yagona tasvirlash vositasi bo’lgan kashtachilik, ular ichki dunyosini, ruhiy holatini aks ettiruvchi birdan – bir vositadir. Shuning uchun bo’lsa kerak, bu hunarning ta’sirchanligi boshqa hunar turlaridan yaqqol ajralib turadi, kashtachilikning eng qadimgi namunalari kosibiy usulda qo’lda to’qilgan bo’z karbosga tikilgan. Paxta tolasidan pishiq qilib ishlangan bu matoning donador to’qimasi yuza qismi kashta tikish uchun nihoyatda qulay bo’lgan. Ayniqsa bigiz bilan yo’rmado’zi usulida kashta tikish uchun u juda mos tushgan. Bo’zning rangi oq, malla bo’lib boshqa ranglar uchun betaraf asos vazifasini o’tagan. To’rt – besh enlik bo’z yagona taxta qilib tikilgach, uni chizmakashga berishgan. Chizmakash so’zani gullari kompozistiyasini ijod qilib, tasvirini bo’yoq yoki qalam bilan chegaralab bergach, so’zana yana alohida bo’laklarga chokidan ajratilib, kashtachi chevarlarga tarqatilgan. Oldindan belgilangan asosiy rangli ipak, kashtachilar o’rtasida taqsimlangach, ishga kirishilgan. Mohir kashtachi chevarlar ma’lum erkinliklarga ega bo’lganlar. Ranglari belgilangan gullarni har – xil rang o’yini qilib, jumjimadorlikka erishganlar. Chizmakashning hunari avloddan – avlodga o’tib borgan va uning nozik tomonlari sir saqlangan. So’zana kompozistiyasi aksariyat holda simmetriyaga asoslangan. Ammo ayrim gullar va gul qismlari erkin joylashtirilgan. Kashta tikuvchi chevar chizilgan gullarni oxirigacha tikmay qoldirgan.

Odatga ko'ra chevar hunarini uning bolalari va nevaralari davom ettirsin deb, ataylab shunday qilingan. Kelinning birinchi farzandi tug'ilgach, bu gullarning bir elementi tikilgan. Navbatdagilari uchun ham shunday qilingan. Ayrim gullarning bargi va shoxchalarini avlodlar shajarasini bildirgan. Yuz yillar davomida bu sohada ham mahalliy badiiy uslublar tarkib topdi va kashtachilikning yirik markazlari yuzaga keldi. Kashtalarning olti asosiy bir – biridan farq qiladigan yo'naliishlariga ega bo'lган kashtachilik maktablari mavjud: ular **Nurota, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Farg'ona, Buxoro** maktablaridir.

Keling, hozircha siz bilan Buxoro kashtachilik maktabi haqida gaplashaylik.

Buxoro kashtalarini Nurato kashtalari singari klassifikasiya qilish qiyin, sababi ular juda ham xilma – xildir. Buxoro kashtalarining o'ziga xos belgilaridan biri ularda yo'rma chokni mahorat bilan qo'llashdadir. Yuzada qo'shimcha relefli gul hosil qiluvchi va guldag'i shakllar tonining o'zaro uyg'unlashishini ta'minlovchi ornamentning har bir detali yo'rma chok bilan alohida – alohida tikiladi.

Buxoro kashtalarining kompozistiya tuzilishi va gullari ham juda xilma – xildir. Buxoro kashtalarida markaz va burchaklari bo'rtib ko'rinvchi yopiq kompozistiya ko'proq uchraydi. Bunda asosiy motiv davra — trunj hisoblanadi. Davra – trunj detallari o'zining turli – tumanligi bilan kishini hayron qoldiradi: ular konstentrik aylanalarga, sektor va yulduz kabi shakllarga bo'lingan bo'lib, hammasi motivning yangi variantlar bilan to'ldiradi.

Bigiz – Buxoroda "daravsh" deb yuritiladi. Daravsh bilan tikishda ipak iplar avval kalava shaklida taylorlanadi, bo'yaladi. Bo'yaganidan so'ng kalava qayta koptok shaklida o'raladi va iplarning biri o'ngga, biri esa chapga aylantirilib, tob solinadi, shundan so'ng ular birlashtirilib, ikki ip bir qatim qilinib o'raladi va kichik koptok shakliga keltiriladi. Kashta tikiladigan bigiz ilmoqli, yog'och dastali bo'ladi. Kashta tikish paytida barmoqlarga bigizning ilmog'i zarar etkazmasligi uchun maxsus barmoqqa kiydiriladigan asbob "noxunak" – temir tirnoq, tojikcha so'z bo'lib, "noxun"-tirnoq, tirnoqqa kiydiriladigan ma'noni bildiradi.

Buxoro so'zanalari qatoriga har bir kashtada har xil hal qilinuvchi, shu bilan kishida ornamenti xilma – xil ekan degan tasavvur qoldiruvchi alohida gulli va xonalari rangli motivli, hoshiyasi yoqimli “islimi” naqshli va palmetalli, rombsimon turli kashtalar qo'yiladi.

Buxoro shahrida tayyorlangan kashtalar o'zining ko'p katta bo'limgan shakllari bilan ajralib turadi. Bu kashtalarda Buxoroning ming yillik tarixga ega me'moriy yodgorliklaridagi g'isht, loy, sopol, koshin devoriy bezaklarning va naqshlarning ta'sirini ko'ramiz. Buxoro shahrida turli millatlar yonma – yon yashaganlar. Ularning ko'p asrlik birgalikdagi turmushi shaharning boy, o'ziga xos an'analarini va urf odatlarini dunyoga keltirgan. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan shahar aholisining aksariyati kosiblardan iborat bo'lgan. Kashtachilik buyumlarini asosiy iste'molchilarining aksariyati xam ularning o'zлari bo'lishgan, shuning uchun ham bu davrda yaratilgan Buxoro kashtalari yuksak mahorat va nozik did bilan yaratilgan. Bu kashtalar asosan kosibiy oq rangli ip gazlama “karbos”ga, sidirg'a shoyiga, atlasga, adresaga va hisoriga sof ipak ip – “breshim” bilan tikilgan. Breshim iplari pillaning o'rtasidagi toladan tayyorlangan.

Kashtachilik san'atining qaysi markazi boshqasiga qanchalik ta'sir etgan bo'lmasin, u eng avvalo o'zi shakllangan hududda rivojlangan va aynan shu erga xos belgilari bilan boshqasidan farq qilgan. Asrlar bo'yi yig'ilib, avloddan-avlodga avaylab asrab kelingan an'analar doirasidagi bu poyonsiz boylik, undagi cheksiz xilma-xillik, bu o'ziga xos xalq san'atining bebaxo xususiyatini tashkil etadi.

Buxoro kashtalarining o'ziga xos belgilardan biri ularda “yo'rma” choki mahorat bilan qo'llanilishida va havo rang, gul rang, binafsha rang, pushti va och sariq rang, qizil malina va ko'k ranglar bilan uyg'unlashidadir.

Buxoro kashtalarida “yo'rma” chokdan tashqari, kompozistiyasi, tuzilishi va gullarni ham juda xilma – xildir. Mato yuziga bir tekis joylashgan ingichka shoxdagi gullar shoxlar bilan o'ralgan yo'rma do'zi qilinganligi bilan ajralib turadi. Buxoro maktabida esa, ko'proq igna bilan birga yo'rma choki bajarilgan.

**G’ijduvon chevarlari** ipak ipni chap - rost qilib chillikda tob berib bajarsalar, buxoroliklar birishim iplari bilan chap rost toblamasdan kashta tikishgan. G’ijduvon kashtalari asosan oq, kulrang, malla, tabiiy rangli karbos, qizil satin, oq surp va qo’ng’ir rang rensga tikilgan bo’lsa, Buxoro kashtalari oq karbos, rangli adres, shoyi va hisori matolarga bajarilganligi bilan farqlanadi. G’ijduvon so’zanalari joypo’sh va joynamozlari kompozistiyasi an’anaviy markaziy maydon, keng hoshiya va 2 ta tor hoshiyalardan iborat, markaziy maydonda simmetrik naqshlar ketma – ket holatda joylashtiriladi. Keng hoshiyada asosan markaziy maydondagi naqshlar simmetrik holatda takrorlanadi yoki “islimi” holatda takrorlanadi, naqshdan iborat bo’ladi. Ikkita tor hoshiyada bir – biriga o’xhash geometrik “islimi” ngaqsh, “miandr”, “mavj” yoki “sebarga” dan ikki yoki uch qator yo’rma chiziqlari o’tkazilgan. Kompozistiyani birinchi holatda asosan geometrik doiralar, “to’pbargullar”, butalar va shoxchalar tashkil qiladi. Ochiq qolgan joylarga barg, shoxcha, ko’zacha, oftoba, ayrim hollarda qushlar tasviri tikib to’ldiriladi.

Kashtalarda – butagul, gul daraxt, qo’shko’rak, tagalak, anguri, shobarg kabi shaqshlar uchraydi. Ba’zi hollarda katta binolarning arab yozuvida forsiy va turkiy tillardagi baytlar tikib bezatishgan. Odatda, yirik katta buyumlari nusxalarini maxsus tajribaga ega bo’lgan chizmakash – nusxachalar chizishgan. Chizmakash naqshlarni “rangli siyo” – qora tabiiy bo’yoqlar bilan chizgan. Kashta kompozistiyasi chizilayotganda, matoh yaxshi taxta qilib tikilgan, uning dioganallari bo’yicha qatlab markazi topilgan, keyin asosiy maydon va keng hoshiyaga ajratilgan. Har bir kashta nusxasini yaratish chizmakash uchun ijodiy jarayon hisoblangan. U hech vaqt tayyor ulgudan nusxa kuchirmagan. Ammo u kashta nusxasini kashtachiga ham chizma tariqasida bermagan. Uning hunari shaxsiy sirga ega deb hisoblangan. Kashtachilar kashta tikishda ayrim unsurlarni tikmay qoldirishgan. Buning ma’nosи, kashtachi chevarga ko’z tegmasin. “Chashmi bulbul”, “dandon”, “dutarafa dandon”, “zanjiri”, “barra tishi” naqshlari kashta qismlarini chegaralashda qo’llanilgan. G’ijduvon kashtachilari ranglarni mahalliy tilda: pistoqi yashil, nofarmon – siyohrang gulobi ko’k, shirchoyi –

nilobi, gilosи – to’q qizil, kabo’ti – yashil, siyoh – qora, zard – sariq, xokistar – kulrang.

Ipak iplari tabiiy bo’yoqlarga bo’yash uchun ip kalavalari achchiq tosh eritilgan suvga solib qo’yilgan, keyin tozalab olingan, rangga solib qaynatilgan va sirkali suvga botirib olib quritilgan.

Quritilgan ip qayta kalava qilinayotganda “xor – cho’p” silliq tayoqcha bilan tekislangan.

Tekislangan ip igna teshigidan yaxshi o’tgan. XX asr boshlarida kelib tabiiy ranglar o’rnini anilin bo’yoqlar egalladi. G’ijduvon kashtalari, o’zining mayin rangini yo’qotib, oftobda tez oqaradigan sun’iy ranglarni ko’proq ishlata boshlashdi. Bu esa G’ijduvon kashtalarining ham qimmatini pasaytirishga sabab bo’ldi.

Buxoro milliy kashtachiligidagi **Shofirkon kashtalari** o’ziga xos alohida o’rin egallaydi. Shofirkonda ipakchilik qadim davrlardan taraqqiy etgan. Kashtachilik esa xalq ijodining eng ommaviy demokratik formasi bo’lib kelgan. Uylarga bezak berish san’atining barcha sohalarida tajriba avloddan-avlodga o’tish usuli bilan rivojlanib borgan. Har bir kashtado’z o’ziga xos yagona usullarni yaratish bilan kashta go’zalligi sayqalshshb borgan. Kashtachilik asosan xotin-qizlar hunari hisoblanib, uy-ro’zg’or tashvishlaridan bo’sh vaqtning bari shu hunarga, u orqali ro’zg’orni ko’rkam qilishga qaratilgan. U xalq turmush madaniyati estetikasida ham o’z aksini topgan.

Kashtado’zlik san’atining nodir namunalari hozirgi kunda jahondagi ko’plab muzeylarda, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanib kelmoqda.

Peterburg, Samarqand, Buxoro, Moskvadagi Sharq madaniyati muzeylarida, G’arbiy Evropa, jumladan Berlin xalqshunoslik muzeyi shular jumlasidandir. Bu kashtalar XIX asrning oxirida O’zbekistondan olib ketilgan. O’zbek kashtasi yaxshi o’rganilmagan va ular haqida juda oz ma’lumot bor.

XIX asr oxirida Stokgolmda F.R.Martaniig O’rta Osiyo hunarmandchilik san’ati asarlaridan yiggan kollekstiyasining ko’rgazmasi bo’ldi. Ko’rgazmada Nurota, Buxoro so’zanalari bo’lgan.

Bessertnmng Berlin xalqshunoslik muzeyida saqlanuvchi turli xalqlarning naqshlariga bag'ishlangan albomda Buxoro, Nurota, Shahrисabzning ZOta kashta detallari 3 rangli jadvalda berilgan.

Hozirgi kunda Buxoro kashtachilik san'ataning asl namunalari rus davlat muzeyida (Leningrad) xalqlari etnografiyasi, Sharq madaniyati Davlatmuzeyida (Moskva), Tojikiston O'lakashunoslik muzeyida (Dushanbe), Tojikiston SSR Fanlar Akademiyasi muzeyida, O'zbekisgon xalqlari tarixi muzeyida (Toshkent), O'zbekiston madaniyat va san'at tarixi Respublika muzeyida (Samarqand), tarixiy o'lakashunoslik muzeylarida (Buxoro), O'zbekiston Respublikasi dekorativ amaliy san'at muzeylarida (Toshkent) saqlanmoqda.

Buxoro milliy kashtachiligida **Shofirkon kashtalari** o'ziga xos alohida o'rinn egallaydi.

Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi 18-son hunar bilim yurti qoshida 1997-1998 o'quv yilida 120 nafar, 1998-1999 o'quv yiliga kelib 15 nafar hozirgi paytda qishloq yoshlarini milliy hunarmandchilikning etti turi kashtachilik, zardo'zlik, bo'z tikuvchilik, rang-tasvir, kosibchilik guruuhlarini ochib, xalqimizda qadim - qadim zamonlardan beri asrab avaylab kelingan xalq hunarmanchiligi sirlari o'rgatilib kelinmoqda. Afsuslar bo'lsinki, 70-yilning totalitar tuzimi davrida, xalqimizning eng noyob, eng qadirli, umirboqiy hunarmandchiligi bo'lgan kashtado'zlik va bashqa hunarlar deyarli yo'qotilgan edi. Bugungi kunda "Zuhra" firmasi misolida milliy hunarmandchilikning ushbu turlari 70-80 yildan keyin qayta tiklandi. "Zuhra" firmasi Shofirkon tuman A. Navoiy jamoa xo'jaligi hududida joylashgan bo'lib kasb-hunar sirlarini o'rgatishda va etishib kelayotgan yoshlarning estetik didlarini shakillantirishga, tarbiyalashda katta xizmat qilib kelmoqda. Yana shuni aytish kerak-ki, xalq ustalari va hunarmandlarining mahoratlaridan o'rinali foydalanmoqdalar.

Buxoroda 1992 yilda milliy hunarmandchilikni qayta tiklash va rivoshlantirish markazi, 1994 yilda “Hunarmand” milliy hunarmandchilik uyushmasi viloyat bo’limlari tashkil qilindi va ularni say- harakatlari tufayli bizning viloyatimizda milliy hunarmandchilikni bir qator turlari qayta tiklanib, rivojana boshlandi, ular qatori qadimiylar Buxoro kashtado’zligini qayta tiklash uchun D.A Halimova va kashtado’z usta Olloberdieva Zuxrolar Hindistonning Xaydarobod shahriga ipak iplarni tabiiy bo’yoqlar bilan bo’yash sirlarini o’rganishga borishdi. Qaytib kelishgach milliy kashtachilikda qadimdan qo’llanib kelingan kashta iplarini mahalliy qo’lda tayyorlana digan bo’yoqlar ustida izlanishlar olib borildi. Ularning izlanishlri natijasi sifatida Buxoro va Shofirkonda tabiiy bo’yoqlar bilan bo’yalgan ipak iplar bilan tikilgan kashtachilik buyumlari ishlab chiqarila boshlandi.



XIX asirning 80-yillarigacha yirik dekorativ kashtalar xonaki oq “karbos” ga siriq rangli “malla” matoga tikiladi. Hozirgi kunda “Zuhra” firmasida ham oq xonaki “karbos” ga, o’zlari tayyorlagan tabiiy bo’yoqlarda ipak iplarda kashta lar tikish yo’lga qo’yildi. Tabiiy bo’yoqlar tayyorlash texnologiyasini tiklash va uni rivojlantirish yo’llarida keng imkoniyatlardan foydalanmoqdalar.

Buxoro kashtachilik mактабига mansub yuzlab kashtachilik buyumlari so’zana, takiyapush, joypo’sh, tanpokkun, do’ppi, oynaxalta va boshqalar Shofirkonlik chevarlar tomonidan 19 asrning ikkinchi yarmi 20 asr boshlarida bajarilgan. Buxoro Davlat muzeyi kollektiviyasida saqlanayotgan 600 ga yaqin kashta buyumlarining 144 tasi Shofirkon kashtalari, Toshkent, Samarqand va boshqa shahar muzeylarida saqlanayotgan Buxoro kashtalari orasida ham o’nlab Shofirkon so’zanalari yig’ilgan. Shofirkon tumanining bir tomoni bepoyon cho’l Qizilqum burxonlari bilan o’ralgan bo’lsa, ikkinchi tomoni yashil vohaga qo’shilib

ketgan. Shuning uchun ham kashtalarda ham kulrang, moviy osmon rangi, tilloyi sariq rang, binafsha va qizil ranglar bilan yonma-yon go'zal bir uyg'unlik kasb etadi. Shofirkon kashtalari asosan bigiz bilan yo'rma uslubda tikilgan va «daravsh» deb atalgan. Ayrim hollarda «bosma», «qarsdo'zi» va «duro'ya» uslublari ham ishlatilgan.

Shofirkon kashtalari-ning nodir namunalari hozirgi kunda jahonning ko'plab muzeylari, shaxsiy kolleksiya-larida saqlanib kelmoqda. Vatanimizning yetakchi muzey-lari kollektivalaridagi noyob Shofirkon so'zanalari bu hunarning shofirkonlik chevarlar san'at darajasiga ko'targaniga guvoxlik beradi.

Shofirkon kashtachili-gining tipik namunasi 19 asrning ikkinchi yarmida tikilgan nimso'zana yostiq ustiga yopiladigan kichik namoyon “yo'rmado'zi” uslubida bigiz bilan tikilgan. Asosi oq rangli kosibiy “bo'z”. Nimso'zana 4 bo'lak ensiz gazlamani bir biriga tikib yaxlit taxta hosil qilib, unga to'rtburchak shaklida markaziy kompozitsiya joylashtirilgan Asosiy naqsh doira shaklidagi olti bargli “to'rbarggul” hisoblanadi. Uning atrofida to'rt burchagida dioganallar bo'yicha “chorbarg” va “safsargul” nusxalari tushirilgan. Gullar romb shaklida ikkitadan “shoxcha” barglar bilan chegaralangan. Markaziy to'rtburchakda 10 ta to'pbarggulli doiralar , uning girdi islimiyl naqshli ikkita tor va markaziy maydondagi naqshni takrorlovchi keng hoshiya bilan o'ralgan. Asosiy ranglari: qizil, qirmizi, yashil, ko'k, sariq, havorang, malla, siyoh rang va qora rangli ipak iplardir. (Qizil rangli ip jundan tayyorlangan.)

O'zbekiston Davlat San'at muzeyidagi so'zanasi, hajmi  $246 \times 170$  sm oq kosibiy matoga “qarsdo'zi” uslubida bajarilgan.O'simliksimon naqshlar ipak iplar bilan tikilgan. Hoshiyada naqshlar markaziy maydondagilarga o'xshamaydi. Markazda “shoxchagullar”, keng hoshiyada doirasimon “rozetkalar” joylashgan.O'simliksimon naqshlar markaziy maydon motivini uyg'unlashtirib yuborgan. Mayin ranglar so'zanaga nafis ko'rinish kasb etgan.Zangori, kulrang, sarg'ish ranglar, qizil, to'q qizil ranglar bilan qo'shilib, ranglar tuzilishini tashkil qiladi. Gullari o'simliklardan tashkil topgan Shofirkon kashtalaridagi naqshlar

tabiatning abadiy uyg'onishi timsoli bo'lib, yerdagi hayotbaxsh kuchlarning poetik jihatdan ulug'lanishi ramzi bo'lib xizmat qilgan. Shofirkon chevarlari eng ko'p ishlataligani naqsh mavzulari "doiragul", "to'pbarggul", "gulisafsar", "chinnigul", "namozshomgul", "bodom" va "qalampir" kashta buyumlariga o'zgacha chiroy va go'zallik bag'ishlagan.

19 asrda Buxoro amirligining bekliklaridan biri **Nurotada** o'ziga xos bo'lган kashtachilik markazi tarkib topdi. Nurota bir tomondan Qizilqum cho'llariga, ikkinchi tomondan Oq tog' tizmalariga tutashgan harbiy strategik joyda joylashgan qadimgi qo'rg'on bo'lib, bu vohani katta-kichik yer osti buloqlari suv bilan ta'minlaydi. Aholisi asosan tojiklar bo'lib, ular chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishadi. Nurota 19 asr oxirida o'zining matolari, marmar buyumlari va kashtalari bilan shuhrat qozongan.

Nurota kashtalari boshqa maktablar kashtalaridan badiiy jihatdan farq qiladi. Kashtachilikning yirik markazlaridan biri sanalgan Nurota asrlar mobaynida kashtalarning tasvir aniqligi, o'simlik naqshlarining serjilvaligi bilan mashhur. 19 asrda Nurota kashtalari asosan oq kosibiy karbos va och yashil ip gazlama mato ustiga "bosma" va "yo'rma" uslubida guldstalar bilan bezatilib, matoning oq foni tig'iz to'ldirilmagan.

Nurota kashtachiligi o'zining gulli motivlarining boyligi va rang-barangligi bilan O'zbekiston kashtalari orasida birinchi o'rinda turadi. Gul naqshlarining go'zalligi va boyligi jihatidan Buxoro kashtalariga yaqin tursada, o'ziga xos ijro uslubi bilan alohida ajralib turadi. Nurota kashtalarida ba'zan gul naqshlari, o'simliklar, qushlar, turli jismlar va hatto hayvonlar tasviri, ayrim hollarda yashirin tarzda odamlar tasviri bilan ham boyitiladi. Kashtalar ochiq rangli ipak va jun iplardan igna bilan sidirg'a – bosma uslubida tikilgan gul va naqshlar atrofi bigiz bilan "daravsh" chokida chegaralangan.

Nurotada kashta asosan bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal, movutga tikiladi. Iplari ipakdan yigirilib, bo'yoqlari tabiiy o'simliklardan olinadi. Nurota so'zanalarida ochiq ranglar: qumrang, tilloyi rang, kulrang, pushti rang, havorang,

och yashil rang, qizil rang ishlatalgan. Ranglar Buxoro kashtalari rangiga yaqin, ular bosiqlik va salobatni kash etgan

### **Kashtachilikda naqshlarning qo'llanishi va kompozistion masalasi**

**Naqsh-** arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Kashtado'zlik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida usimliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida geometrik, usimliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi, qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va to'yoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Rang-tasvir vositalar yordamida ishlangan, nur va soyalar hajmni keltirib chiqaradigan, shu bilan birga uylamay-netmay tabiatdan aynan kuchirishga intilmagan rasmchini naturadan yaqinroq bulishi mumkin. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozistiyaga aylantiriladi. Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo'lib, usha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog'liq bo'ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. Usimlik, qush motivlarini aniq kursatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarigina burttirib kontur qilib chiziladi.

Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy echimini uylab ko'rish, bezakning undagi ayrim bulaklarining buyum yo'zasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozistiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozistiya xarakteri ko'proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog'liq bo'lib, bu kompozistyaning ifodali bulishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.

**Kompozistiya** (mujassamot) - lotincha "Kompositio" so'zidan olingan bo'lib, ***to'qish, to'zish, bir-biriga solishtirish, naqshni g'oyasi, xarakteri va vazifasiga, muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish*** degan ma'noni anglatadi.

**Ritm** - naqsh kompozistiyasining ma'lum bir qismi, ma'lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatning o'zluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi. **Simmetriya** - grekcha so'zdan olingan bo'lib, ulchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

**Assimetriya** - kompozistiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini bo'zilishidir.

**Stilizastiya** - tabiatdagi usimlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va o'zilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

Bizgacha etib kelgan kashtachilik namunalarini sinchiklab o'rganib chiqilsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, kashta naqshlari qadim – qadim zamonlardan, eramizdan oldingi davrlardan shakllanib, uyg'unlashib boyitib kelingan va shu bilan birga asosiy yo'naliш va naqshning turli xillari saqlanadi.

Shu qatori kashtachilikda ishlatalidigan naqshlar ham o'ziga xos xarakterga ega. Kashtachilikni o'rganishga kirishayotgan har bir kishi naqsh elementlarini chiza olishni urganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishlarining alifbosi hisoblanadi. Biz o'simliksimon naqsh elementlari barg, gul, marg'ula va tanob, shkufta, bog'lam va sirtmoqlarning turlari, nomlari va ularni chizishni urganamiz (34-rasm). Kashtado'z ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g'uncha, qush va boshqalarning to'zilishini, usish qonun-qoidalarini, ko'rinishini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozistiyalar ishlash uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Masalan gulni stillashtirib olar ekan, uning go'zalligini qaysi holatdagi ko'rinishini tasvirlashni izlab topadi. Usimliksimon naqshlar "**Islimi gullar**" deb ataladi. Islimi gullar o'z navbatida, ikki tomonga ulanadigan ko'rinishda bo'ladi.

**Band** (novda) - naqshlardagi o'simlik va shoxlari bir-biriga mustahkamlanadi.

**Tanob** - arabcha chilvir-argon degan ma'noni bildiradi. Murakkab naqshlar kompozistiyasi asosini tashkil etuvchi negizi, naqsh shakl beruvchi chiziq tanob deyiladi.

Naqqosh naqsh kompozistiyasini chizishdan oldin birinchi tanob tortib keyin novdalarni chizadi, so'ogra novdalarni yo'nali shiga moslab gullarni joylashtirib chiqadi. Naqsh kompozistiyasini chizishda tanob birinchi darajali chiziq bo'lib, uning ustidan hech qachon gul, novda yoki barg bosib utmaydi. Tanoblar xilma-xil ko'rinishda bulishi mumkin.

**Barg**-o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi usimlik bargining stillashtirib olingan tasviri. Barg naqsh kompozistiyasida tuldiruvchi va xush beruvchi elementdir. U to'zilishiga kura oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy barglarga uch barg; bodom barg, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko'p barg, shobarg va boshqalar kiradi. Barglarning quyidagi turlari bor; shobarg eng katta barg, qush barg, ko'p barg, chor barg (turtta barg), xurmo bargi, tol, anor, qashqarcha, madohil, qushbodom, qalampir, nok, sambit, butoq barg va boshqa 50 dan ortiq turlari mavjud.

**Gul** - tabiatdagi gullarning stillashtirib olingan tasviri bo'lib, naqsh kompozistiyasida tuldiruvchi va hush beruvchi element hisoblanadi. Gullarning har xil turlari bo'lib, ular o'ziga xos nomlanadi. Masalan; lola gul, chinni gul, savsar, atir, gultojixuroz va boshqalar.

To'zilishiga ko'ra gullar oddiy va murakkab gullarga bo'linadi: murakkab gullarga pista gul, kuo'pbargli gul va oddiy gullarga lola, oygul, nuxat gul va boshqalar kiradi. Gullar har xil to'zilishiga ega bo'lganligi uchun ularning o'ziga xos ismlari bor.

**Shukufa**-usimliksimon naqsh elementi bo'lib, novdalarni bir-biri bilan bog'lash va yo'zalarni tuldirish uchun xizmat qiladi.

**Marg'ula**-qush chiziqli gajak, usimliksimon naqsh elementi. Agar bir novdaning ichida ikki marg'ula hosil bo'lган bo'lsa, u qush marg'ula deb yuritiladi. Agar novda bilan marg'ula tasvirlangan bo'lsa, marg'ulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozistiyasida marg'ula tuldiruvchi element hisoblanadi.

**Bofta**-tanob aylanib o'tib hosil qilgan shakl.

Islimiylar naqsh elementi. Boftalar to'g'ri, egri hamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'ladi. G'uncha-tabiatdagi g'unchalarning usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri.

Kashta naqshlarida kishilarning tabiat hodisalari aks ettirilgan. O'zbek kashtasining naqshlari obrazida bu yashnab, gullab turgan bog' timsollarini ko'p ko'ramiz. Ayrim nusxalarida hayvonotlar shakli va buyumlar (oftoba, choynak, ko'za) shunday tasvirlanadiki, ularni moviy ko'rinishlaridan, asli shaklini ajratib bo'lmaydi, balki ular o'simliksimon qiyofaga kirib kashtaning umumiyligi uslubi bilan bog'lanib uzviyashib ketadi.

O'zbek millati azal – azaldan dehqonchilikni erni juda qadrlagan millatlardan biri bo'lgan. Shu sabab har bir qishloq aholisi daraxt, gul, o'simlik va hayvonot olamini asrab – avaylayda, ardoqlaydi. Bunday tabiatga bo'lgan mehr albatta o'zbek kashtalarida o'z aksini topgandir. Tabiatdagi lolaqizg'aldoqlar, boychechaklarning chaman bo'lib ochilishi har qanday inson qalbiga qanchalik zavq baxsh etishini tasavvur qilish qiyin emas. Balki ana shunday go'zallikning kashtaga ko'chishi tabiiy bir holdir.

Har bir so'zana alohida san'at asaridir. Albatta bunga kashtado'zning o'z oldiga qo'ygan yagona maqsadidir: san'ati va mahorati fantaziyasining ko'p qirraliligi bilan odamlar qalbiga quvonch, shodlik baxsh etishdadir. Kashtachi o'z ijodiy fantaziyasini har bir so'zana detallarida namoyish qilishga harakat qiladi. U gullardan – yulduzlar, guldastalar, oy, quyoshni tasvirlaydi.

Gullarning novdalarini tasvirlab, ular shoxchalarga silkinib nafis butoqlarda osilib turgandek namoyish qilinadi. Kashtachi tabiat manzarasini tasvirlar ekan u borliqdagi bor o'simliklarni, hayvonot olamini uy – ro'zg'or buyumlarini hatto inson suratlarini ham tikishga, tasvirlashgan – bu baxt saodatli, quvonch va shodliklarga to'la hayot orzusi, quyosh – yorug'lik issiqlik mo'l hosil, bu baxt va visol osoyishta baxtli hayot, oila, yulduzlar, moviy va musaffo osmon, orzu, umid, baxt- iqbol tunning mayin shabadasi, ertaning baxtli kun orzusi; oftoba – mo'l – ko'lchilik, ro'za – suv, dehqonchilik umidi, hosilning mo'l bo'lishi, oilada fayz – baraka va seroblik, serfarzandlik

Ko'za, oftobalar asosan so'zananing yuqorida bo'lган qismida tikiladi. Qushlar tasviri ham qadimiy san'atga xosdir. Qadim – qadimdan biror ishni boshlashda, shu ish yaxshi, saodatli bo'lishi niyatida qushlar tasviri tushirilgan, shu sababli hashamatli bog'larda qushlarni boqish odat bo'lган.

Katta dekarativ san'at asarlarini kishi tomosha qilar ekan uning ko'z oldida milliy arxitektura manzaralari gavdalanadi. Yaqinroqdan esa yirik – yirik shoxlar va gullar, juda yaqindan qaralganda esa naqshning nafisligi bilinadi.

Sharqning ko'p xalqlari singari o'zbek xalqlarida ham anor hosildorlikning ramzi bo'lib kelgan. Uni Anaxita haykali qo'lida eramizning boshlarida qurilgan (I – IV asr) ossuriylar devorlaridagi naqshlarida ham uchratish mumkin.

Anor juda sodda shaklda beriladi: dumaloq ko'rinishi va ichidagi gul kosachasigina tasvirlanadi. Kashtalarda tasvirlangan anor ham shunga juda o'xshaydi. Mevaning mohiyatni aks ettiruvchi donachalari, po'stidan nur sochilayotganday, tovlanib turganday tasvirlanadi. O'simliksimon bezaklarning ichida keng tarqalganlaridan yana biri lola, bodom yoki qalampir tsvirleri bo'lib, ular juda ko'p shakllarga ega. G.Grigorevni yozishicha u gul tasvirlarini bir – biriga taqqoslash yo'li bilan bu bezalarning (bodom, qalampir) qushlar tasvirlaridan (xo'roz, qirg'ovul) asta – sekin ixchamlashish va ayrim qismlari bo'lib qolinishi natijasida kelib chiqqanligini aytadi.

Agar biz e'tibor bilan qarasak bunday shakllar eramizdan avvalgi Ayrimom, Frizi bezaklarida uchraydi. Rang – barang iplar bilan tikilgan. Doira gullari guruhlarga bo'linadi va ular "zabonchcha", "oftobacha" yoki "ko'zacha" deb ataladi. Doiraga chizilgan shakllar yoki sakkiz qirrali yulduzlardan iborat bo'ladi. Bu qirralar ko'proq qizil, to'q qizil ranglarga galma – gal almashib tikiladi.

Toshkentda doira gul, oy, Buxoro va Nurota "moh", Samarqandda "lola" deb yuritiladi. Naqshlarda buyum tasviri ko'p ishlatilishi mumkin. Masalan, ko'za tasviri. Ko'za yoki choynakka ba'zan shoxcha solib qo'yilib, uning ko'rinishiga tangachalar bilan bezak beriladi.

Bulardan tashqari kashtalarda qushlar tasviri ham uchraydi. Ular tovus, qirg'ovul, o'rdak, xo'roz va boshqalar.

Qushlar shunday ustamonalik bilan joylashtiriladiki, ularni bir qarashda aniqlab bo'lmaydi.

Masalan, qush patlari demokrativ uslubda tikilgan, dumি va tanasi turli rangdag ipaklarda tikilgan bo'ladi yoki qush tanasi yarim oy shaklidagi turli rangli ko'ndalang qismlarga bo'linadi va ular turli rangdagi ipak iplarda tikiladi.


Markaziy Osiyo xalqlari mifologiyasi bilan bog'liq ekanligining guvohi bo'lamiz va bu an'ana juda qadimdan davom etib kelganligini muzeylarda (S.Peterburg –Ermitaj)da shoxchani cho'qib turgan va tumshug'ida shox saqlab turgan qush bezagini uchratamiz

XIX asr oxirida o'zbek kashtachilikida qushlarga juda kam e'tibor berilgan va ular so'zananing bir chetiga kichik hajmda tasvirlangan. Hozirgi kunda ham kashtachilikda qushlar juda kam uchraydi. Shunisi diqqatga sazovorki, kashtachilikda hayvonlar, qushlar tasviri bezak sifatida berilsada, kashtado'z boqiylikni obrazlar orqali berishga, atrof – muhitni to'g'ri, real tushunishga harakat qilgan.

Kashta naqshlarini badiiy vositalar, uning dekorativ talqini, ranglari, buyumlarning tanlanishi va tikish texnikasi bir – biriga uzviy bog'liqidir. Chunki kashtachilikda yuqorida ko'rsatilgan har bir talqin bir – birini to'ldiradi, boyitadi va natijada qismlari o'zaro bog'liq bo'lgan dekorativ badiiy asr yaratilishiga olib keladi.

Kashtachilikda bezatish alohida va muhim rol o'yaydi.

Kashtachi – san'atkorning badiiy didi, bezaklarini o'z o'rniga, joyiga topib, biri ikkinchisiga shaklan bir bo'lsada, bezaklari ranglari



boshqacha bo'lgan tasvirlarni yaratishi, kashtaning ta'sirchanligini oshiradi.

Kashtachi bezaklarini matoga joylashtirar ekan, gazlamani haddan ziyod bezab ham tashlamaydi, bekorchi, bo'sh o'rinni ham qoldirmaydi. Fon albatta, naqsh va bezakka kashta ta'sir qiladi. Shu sababli kashta fonining oq malla va boshqa rangda bo'lishiga e'tibor bermog'i, fonining o'zi ham qo'shimcha bezak ekanligini diqqat markazida bo'lishini talab qiladi. So'zanada gullar qat'iy o'lchamli, geometrik simmetrik emas, ular erkin o'lchamsiz, taxminiy ochiladi. Shu sababli bunday dekorativ kashtalar yaqinda uyg'unlashib, butun bir yaxshilikni vujudga keltiradi. Bunda har bir gul, o'simliksimon chiziqlarning erkin bir – biriga bog'lanishi umumiylilikni hosil qiladi.

O'zbek kashtalarining kompozistiyasi turli hududlarda turlicha bo'lsada, ularning bir – biriga yaqinligini gullarining xarakteri va rang berishida umumiyligi prinstiplarni aniqlashga imkon tug'iladi. Buxoro kashtachiligidagi kompozistiyani muhim va asosiy qismini tashkil qiladi. Umuman kompozistiyani bir necha guruhga bo'lib o'rgansa bo'ladi:

I guruh – Markaziy gul sathi kompozistiyasi

II guruh – Chekka hoshiya kompozistiyasi

III guruh – O'simliksimon kompozistiya

IV guruh – Makraziy gul va unga yondosh to'rtburchakni bitiruvchi kompozistiya

IV guruh Markaziy gul davrasi kvadratsimon rombsimon va ko'p burchakli to'rsimon kompozistiyadir.

Yuqorida ko'rsatilgan kompozistiyalar tikiladigan kashtaning qanday maqsadga foydalanishga, ishlatishga bog'liq

Kashtachini gulni tasvirlashda ipak bilan gulning kashtaligini berish emas, eng muhimi, dekorativ san'ati asariga rang berish, ularga jilo berish ko'proq qiziqtiradi.

**Bezakni (naqsh) nusxa kuchiradigan (kopirovka) yordamida kuchirish.**

Gazlamani oldin dazmollab, tekis yo'za (stol, taxta) ustiga yozib quyiladi, bunda gazlamaning asos va arqoq iplari qiyshayib qolmasligiga qarash kerak. Naqsh (tekis chok, suv chok, ustki chok va hokazo bilan tikiladigan) chizilgan shaffof qog'ozni gazlama ustiga quyib, tug'nog'ich bilan qadab quyiladi. Nusxa kuchiradigan qog'ozini tuq tomonini gazlamaga qaratib shaffof qog'oz tagiga quyiladi, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan bezak ustidan chizib chiqiladi.

Turli rangdagi nusxa kuchiradigan qog'ozlar bo'lgani ma'qul, shunda och rangdagi gazlamaga tuq rangli (qora, kuk, yashil), tuq rangli gazlamaga och rangli (oq, sariq) nusxa kuchiradigan qog'oz ishlatiladi. Bezakni kuchirib bulingach nusxa (kopirovka) qog'ozi olinib, bir tomondagi tug'nog'ichlar chiqariladi va bezagi tekshiriladi. Shundan keyingina shaffof (kalka) qog'oz olib tashlanadi. Naqshni nusxa kuchiradigan qog'oz bilan kuchirishda bezakning chiziqlari qalin bulmasligini yodda tutish kerak, aks holda kashta tikayoganda gazlama va ip kir bulib qoladi. Shuning uchun ishlatiladigan kopirovka qog'ozidan foydalanish yaxshiroq, yangisini esa ishlatishdan oldin quruq paxta yoki latta bilan artish kerak.

### **Bezakni shaffof qog'oz yordamida kuchirish.**

Movut baxmal va yaltiroq gazlamalar ustiga kashta gulni shaffof qog'oz ustidan kuklash yuli bilan kuchiriladi. Buning uchun bezakni shaffof qog'ozga kuchirib olib, uni gazlama ustiga quyiladigan, butun chizig'i buylab may da zich qaviqlar bilan ninani oldinga yunaltirib tikib chiqiladi. Keyin qog'oz yirtib tashlanadi.

### **Bezakni axta (andaza, ulgi) yordamida kuchirish.**

Axta naqsh yoki biror rasmni shaffof (kalka) qog'ozga chizib, chiziq yullarini igna bilan teshib, buyum yo'ziga tushirish uchun tayyorlangan andoza. Axtani tayyorlash uchun shaffof (xitoy) qog'ozga naqsh kompostiyaga moslab simmetriya uqi buyicha qog'ozni ikkiga, turtga va hokazo buklanadi. Buklamaning bir qismiga naqsh chiziladi.

Naqshli shaffof qog'ozni yumshoq gazlama yoki bir necha qavat gazeta qog'ozi ustiga quyib, naqsh chiziqlari ustidan 2-3 mm oraliqda igna bilan teshib

chiqiladi. Naqsh nusxasi igna bilan teshib bulingandan keyin, shaffof qog'oz yopib yuboriladi, natijada axta hosil buladi.

Tayyor bo'lган axtani ish yo'zasiga quyib, ustidan xoka urib va bosib yurgazib chiqiladi. Geometrik shakldagi bezakni teshma kuchirishda uning kataklari vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqtalarda teshib hosil qilinadi.

Kashta gul chizilgan shaffof qog'ozni kerosinlangan latta bilan artib, toza tomonini gazlamaga qaratib quyiladi-da, bir necha joyidan tog'naladi.

Movutning (ochroq bo'lgani yaxshi) yoki paxtaning ustiga doka urab tampon qilinadi. Tuq rangdagi gazlamaga bezakni kuchirish uchun xokani bur yoki tish poroshogi aralashgan kerosinda hullab olinadi.

Shu maqsadda hech narsa bilan aralashmagan tish pastasini ishlatish ham mumkin. Teshib kuchirishda kashta gulning gazlamasidagi tasviri aniqroq, bo'zilmay chiqadi, bu ayniqsa kashta gulning bitta bulagini bir necha marta tikish kerak bo'lganda, mehnatni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Andozalarni bir necha marta ishlatish mumkin. Bu axtalar (andoza) alohida paketda saqlangani to'zik.

Naqsh chizilgan gazlama parchasiga tikiladigan, uni dumaloq chambarakka tortish qiyin bulsa, bu gazlama parchasining chetlariga ish tugagandan keyin sukib tashlanadigan, hohlagan boshqa gazlama parchasini ulab quyish mumkin.

Matoda gullarning urni-urnini topib quyish, xususan buyumlardagi gullarni joylashtirib chizish g'oyatda murakkab va mas'uliyat talab ishdir. Kashtado'zlik san'atida chizmakash hunari ustalarining urni beqiyosdir. Chevar har qancha mohir bulmasin, naqshlarni chizmakashlar asosan atroflicha uylab kurib, o'z kasb-hunarlarining an'analari va spestifik xususiyatlari asosida chizib beradilar.

### **Bezakni kattalashtirish (kichiklashtirish).**

Ba'zan kashta tikish uchun tanlangan bezak mo'ljallangan buyum kattaligiga to'g'ri kelmay, uni kattalashtirish yoki kichiklashtirish kerak bo'ladi. Buning uchun bezak ustiga ixtiyoriy kattalikdagi o'zaro teng kvadratlardan chiziladi. Bunda kvadratlar qancha mayda bo'lsa, bezakning nuqtalari shunchalik aniq ko'chiriladi va nusxasi ham oson chiziladi. Millimetrlı qog'oz yoki toza qog'ozga buyum kattaligidagi to'g'ri turtburchak chizib, bezakdagi kvadratlar soni qancha

bulsa, shuncha kvadratlarga bulinadi. Agar bezak gulni kattalashtirayotgan bulsa, bu kataklar originaldagagi kataklardan katta bulib, rasm guli kichiklashayotgan bulsa, bu kataklar originaldagidan kichik bulib chiqadi. Shundan keyin kataklar buyicha originaldagagi kashta gulning asosiy nuqtalari toza turga kuchiriladi. Bu nuqtalarni ravon chiziq bilan ehtiyotlab birlashtirib bezakning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi hosil buladi. Rasm nuqtalarini oson topish uchun chizilgan turning ikki tomoniga raqamlar quyiladi.


### **Kashtachilikda so'zana bajarish texnologiyasi**

“Takiyapo’sh” (Nurato, Buxoroda) “Bolishpo’sh”, Samarqanda, Shahrisabizda “Yostiqpo’sh ” deb yuritiladi. Bular taxmonga (rax) yig’ilgan ko’rpa-yostiqlarni yopib qo’yiladi. Taxmon (rax) o’yning to’rida bo’ladi.

Kashtachilik kishilarga estetik zavq bag’ishlaydi, uylarni bezatishdagi axamiyati bilangina emas, balki asrlar davomida shakllangan odat va rasm-rusmlar sababli ham xalk orasida tarqalgan edi.

Yirik kashtalar: So’zana, takiyapo’sh, joynamoz inson ayniqsa xotin-qizlar hayotidagi quvonchli hodisalar bilan bog’liq bo’lgan.Ularni asosan kelin tomon atab tikar va beriladigan qiz sepining majburiy hamda asosiy qismini tashkil etadi. Yosh kelin-kuyovlarga qadim-qadimdan saqlanib

kelayotgan odatga ko’ra, kashta gullariga “yomon ko’zdan saqlovchi ” tumorchalar qo’yib tikilgan. Kashtalar shuningdek, motam marosimlarda vafot etgan xotin qizlar tobutlari ustiga ham yopiladi va murda qo’yiladigan oxirat uyining usti berkitilib turadi. Bitgan kashtaga atayin ayrim joylari chala qoldiriladi.



Bu esa o'ziga xos ramziylikni bildiradi, ya'ni farzandlar davom ettirishini hayotning bog'liqligi avloddan-avlodga o'tishi yoki to'y ketidan to'y kelsin va kashtalar tikilaversin, qizim omon bo'lib boshimiz xursandchilikdan chiqmasin degan ezgu niyatlarini bildiradi.

Kashtalarning hajmi turlicha bo'yi 230-280sm va eni 170-200sm ular yaxlit manzarani kashf etadi. Takiyapo'shlar so'zanalarga qaraganda kichikroq bo'ladi, bo'yi 170-250sm e'ni 120-150sm kompozistiyasi so'zanaga o'xhash bo'ladi. (O'rtalariga) joynamoz va nigoh choyshabi (joypo'sh)ning gullari boshqacha bo'ladi. O'rtalariga gul tikilmaydi. Mehrobli bo'ladi. Bo'yi 130-150sm e'ni 90-110sm . Joynamozning oyoq tomonidan hoshiya tikilmaydi, ochiq qoldiriladi. Ro'yjo: bo'yi 260-285sm, e'ni 165-200sm.

Uning uy tomoni P shaklidagi hoshiya bilan bezatiladi. Bog'joma: (bug'cha) kunduzlari o'rinni o'rab qo'yish yoki turli xil buyumlarni tugib qo'yish uchun ishlatiladi, uning markaziga to'rt burchak shaklida ornament tikiladi, gohida bir burchagi gul tikilgan bo'ladi.

Kashtachilik san'atiga ayollar o'zlarining kelajaklari bobolar va o'z baxtlari haqidagi orzu-umidlarini, tabiatga bo'lgan muxabbatlarini va go'zallikka intilishlarini singdiradilar. Bunday kashtaning noyob san'at sifatida yaratilishini tomoshabning bahri-dilini, insonparvarlik, hayot va tabiatni sevish, ruhiy oziqa olishdek insonda mehir uyg'otadi.

Har bir oilada kashta tikish odat bo'lib, qizlarga yoshlgidan o'rgatilib boriladi. Ular o'zlariga onalaridan chala qoldirilgan kashtalarni tikib davom ettirganlar va o'zlariga ham yangi kashtalar tikkanlar. So'zanalar tikish bir yarim yil ikki yil davom etgan. Agar qizni turmushga chiqishi tezlashtirilsa unda

qarindosh-urug'lari, dugonalari va hamsoyalari to'yga qadar tugatish maqsadida yordamga kelganlar. Gul chizilgan mato bo'lak-bo'lak bo'lib tikilgan va oxirida birlashtirilgan. Kashtalarda "Qalamqosh" yoki "Chizmakash" deb nom olgan talandli xalq rassom- chizmakash ayollari gul chizganlar. Chizmalar o'lchamsiz asosan ko'z bilan chamalab chiziladi. Har bir joy (hududning) o'ziga xosligi mavjud bo'lib, bu o'sha chizmakashning mahoratini uning tabiatini,

o’rab turgan muhidning qanchalik aniq va keng bo’lishga bog’liq bo’ladi. Ular asosan qadimdan qolgan chizmalarini asos qilib, olsalarda chizmalarga o’zlarining fantaziyalarini qo’shib borganlar.

O’zbek kashtalarining o’ziga xos xususiyati hammani maftun etib olishda, ularda bir xil elementlarning uchramasligi va mexanik ravishda qaytarilmasligidadir.

Umuman olganda qulda tikiladigan kashtaning uslubi ikki turga ajratsa bo’ladi.

1. Bezatiladigan tikiladigan matoning arqoq va tonda (o’rish) iplarini sanab kashta tikish.

2. Matoga gul –naqsh, tasvir konturi chizilib kashtani erkin tikish usulubidir.

Arqoq va tonda(o’rish) iplari kesishtirib to’qilgan mato bo’z shaklida to’qilgan tikiladi. Chunki bunday mato iplarini sanash juda qulay, bizda sanama kashtaning sanama turlari tarqalgan.

Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveradi, bunda kashta gullari ixtiyoriy turlicha bo’lishi mumkin. “Bosma” va “Yo’rma” choklarning tirli xillari qo’llaniladi: ernament gullari ham shu choklarda tikiladi. U choc ikki turga bo’linadi: bosma va kandaxayol ikkalasi ham bir biriga o’xshaydi.

Tikish uslubi: uzun tomonining bir chetidan ikkinchi chetiga ip tortiladi va u ko’ndalang choc bilan tikib chiqiladi. Keyingi ip oldinga bo’ylama tortilgan ipga yopishtirib tortilib, xuddi avvalgisidek eniga siriladi. ”Bosma” uslubda - esa choc mayda bo’lib, deyarli perpendikulyar tikiladi va mato uzunasi tortilgan ipga nisbatan sal qiyshiqroq bo’ladi. Har qaysi qator choklari bir-biridan ajralib turadi. Shunday usulda tikilganda so’zananing o’ng (ros) tomonida chiroyli, nafis relefni gul hosil qilgan choklarning to’g’ri dioganali qatori hosil bo’ladi

So’zana gulida o’n to’rt va undan ko’p rangli ipak kashtalari va ular bir butun jiddiy kolorit hosil qiluvchi qirmizi malina och ko’kintir, yashil va qizil tilla ranglar ko’pchilikni tashkil qiladi. Qolgan tomonlardan mayda gullarda ustalik bilan ishlataladi. Eski so’zanalarda ipning tushib ketishiga asosiy

sabablardan biri bo'yоqchilar anor po'stidan foydalanmaganliklari, shu sabab ipler oltmis-yuz yilda tushib ketishi mumkin. Bu hol kashtaning bundan yuz yil va undan ham ko'proq vaqt o'tganidan darak beradi. Kashtado'z bezaklarning matoga joylashtirar ekan, gazlamani haddan ziyot bezab ham tashlamaydi, bekorchi bo'sh o'rinni ham qoldirmaydi. Fon albatta naqish va bezakka katta ta'siri bor. Shu sababli kashtado'z fonning oq, malini va boshqa rangda bo'lishligiga e'tibor bermog'i, fonning o'zi xam qo'shimcha bezak ekanligini diqqat markazida bo'lishini talab qiladi. Fonning bunday xususiyati Markaziy Osiyo xalq hunarmandchiligidagi o'ziga xos xususiyatga egadir. Masalan; Qazoq va Qирг'из, О'zbek (Buxoro viloyat Shofirkon, G'ijduvon, Vobkent tumanlarida) qирг'izlarda bunday hol kup uchraydi va bunda fon va naqsh estetik jihatdan bir -biriga hamohangdir.

So'zanada gullar qat'iy o'lchamli, geometrik, simetrik emas, ular erkin, o'lchamsiz, taxminiy olidadi. Shu sababli bunday dekorativ kashtalar yaqinda uyg'unlashib, butun bir yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bunda har bir gul o'simliksimon chiziqlarning erkin bir -biriga bog'lanib umiyilikni hosil qiladi.

Kashtada bunday vosita yana bir muhim, o'ta talabchanlikni o'zida ifoda qiluvchi kuch – bu kashta tikish uslubi ushbu asarning badiyiligiga bevosita ta'sir etadi. Masalan; Buxoro viloyati Shofirkon tumani "Zuxro" firmasi ishchi qizlari tomonidan tikilayotgan kashta buyumlardagi "Zamindo'zi" uslubida tikilgan gullar ustida relief, ya'ni to'lqinshaklini hosil qiladi va bunday uslubda tikilgan kashtadagi dollar bir tekisda takrorlanadi. Aylana gul sathi hovuzga tushgan toldan keyin hosil bo'ladigan to'lqinlar kabi birin-ketinli shaklini oladi va bu kashtada o'zgacha hayotbaxlikni namayon etadi. Aylana gullarning chekka qisimlari qora rangdagi ipak yordamida ilmoqli, yo'rma choklarda tikilib, kontur chiziqlarni hosil qiladi. Kashtado'zlar maxsuz ilmoqli bigiz "darvish"laradan foydalanadi -lar. Bu uslubda kashtaduz gul sothini aylanasisa tikib chiqadi.

Birinchidan; kashtado'z maxorati didi ushbu kashtaning badiyiligiga olib keladi.

Ikkinchidan; kashtachi bo'yalgan ipak yordamida ish bajaradi va

ranglarni o'z didi, dunyoqarashi, ichki- his tuyg'usilari yordamida joylashtiradi.

Uchinchidan; kashtani oq malla qulda to'qilgan bo'zda tikiladi va bunda fondan o'rinali foydalanadi.

To'rtinchidan; kashtachi butun bir badiiy asrning yaxlitligini, undagi detallarning bir-biriga uzviy bog'liqligini ta'minlaydi.

Beshinchidan; kashtachi butun bir panno yuzasidagi markaziy gul saxnini ilojiboricha; chetki obi qismiga moslashtirib, umumiy yaxlit kompozistiyasini hosil qildiradi.

Oltinchidan; panno yuzasidagi gullar shaklan bir-biriga o'xshasada, mazmunan ularni boyitib boradi va betakrar naqshlar yordamida jozibadorlikka erishadi.

Ettinchidan; kashtachi umumiy kurinishda birdaniga tomoshabin ko'zga tashlavchi yorqin rangdagi ipak iplarni shunday joylashtiradiki, sovuq va iliq ranglar almashib keladi va natijada umumiy, bir ko'rinishda rovon manzara hosil qiladi.

Qadimiy kashtachilik merosimizni qayta tiklash, uni XIX asr darajasiga etkazishi hozirgi har bir kashta tikuvchining yagona va ulug' mavsadi bo'lmos'i lozim, zero bizdan avlodlarga o'zimiz yaratgan go'zal, betakror, nafis badiiy kashtachilik san'at asarlari meros bo'lib kelmoqda.

### **Kashtachilikda ranglar ahamiyati**

Kashtachilikda rang asosiy va muhim o'rinni egallaydi. Kashtaning rangi uning fonidan ya'ni asosidan kelib chiqib, rang caloriti tanlanadi. Oq bo'z hech qachon sutdek oppoq bo'lmaydi. Uning bir oz kulrang, sarg'ish tusi uzviy caloritni hosil qilishga bir qadar mosdir. Kashtachilikda rang asosiy va muhim o'rinni egallaydi. Kashtaning rangi uning fonidan ya'ni asosidan kelib chiqib, rang caloriti tanlanadi. Oq bo'z hech qachon sutdek oppoq bo'lmaydi. Uning bir oz kulrang, sarg'ish tusi uzviy caloritni hosil qilishga bir qadar mosdir. Rang buyumning shaklini yoki katta kichikligini o'zgartirib kursatishi mumkin. Agar qizil va kuk dog'lar bilan qoplangan yo'zaga qaralsa, bunda qizil dog'lar kuk dog'larga

nisbatan yaqinroq bo'lib, aldab ko'rinishi mumkin. Och va iliq ranglar to'q va sovuq ranglarga qaraganda yaqinroq ko'rindi. Shuning uchun ranglar buyumlarni kattalashgandek, sovuq ranglar esa, kichiklashgandek kursatadi.

Ranglarning bu xususiyatidan kiyimning ayrim bulaklarini burttiribroq, turtib turgan joylarini silliqroq qilib kursatish uchun foydalansa bo'ladi. O'zoqdan ko'rindigan buyumlar kashtasini to'q rangdagi iplar bilan tikiladi. Kashta tikish uchun iplarni tanlash, ular rangini xillash buyumning nimaga muljallanganiga, gulning kattaligi va qanday joylanishiga bog'liq bo'ladi.

Odatda, kashta guliga asosiy o'rinni berilib, gazlama rangiga qushimcha o'rinni beriladi. Shuning uchun gazlama rangi naqsh rangidan ochiq bo'lib ajralib turmasligi kerak. Kashta gulining rangini tanlashni bajarish sanama chok, tekis chok va hokazolarga ham bog'liq bo'ladi.

Iplarni tanlashda ranglarning yug'onlashuvini, ular bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. O'zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi.

Agar uch qirrali shisha prizmadan nur tarami utkazilsa, u tarkibiy qismlarga bulinib ko'rindi, rangli yul-spektr hosil bo'ladi.

Tabiatda ranglarning bunday qo'shilishini ko'pincha kamalakda, quyosh nuri shudring zarralaridan utishida ko'rish mumkin. Ko'zga ko'rindigan spektr uzluksiz o'zgara boradigan qizil, to'q sariq, sariq, yashil, zangori, ko'k, binafsha ranglar qatoridan iborat. Bu ranglar bir-biridan oraliq tuslar gammasi bilan ajralgan bo'ladi. Agar spektr ranglarini o'sha tartibda doiraga joylashtirilsa, ko'k- binafsha va qizil ranglar orasida to'q qizil rang bo'ladi.

Ranglar doirasini diametri bo'yicha bir tomonda qizil to'q sariq va sarg'ish-yashil, ikkinchi tomonida zangori-yashil, kuk, kukish-binafsha ranglar qoladigan qilib ikkiga bulish mumkin. Doiraning qizg'ish-sariq bulagidagi ranglari iliq va ularga qarama-qarshi hamma ranglar turlarini sovuq ranglar deyiladi.

Ular kukimtir ufq, suv, mo'z ranglarni eslatadi. Har qanday rang o'zining tusi, och va to'qligi bilan xarakterlanadi. Rang tusi-qizil, kuk, sariq va hokazo-rangdorlikdir

Agar fon rangli bo'lsa, u holda shu rangga mos kashta ipaklari tanlab olinadi. Ba'zan fon ipaklar bilan birga ornamentning rang – barang mos kashta ipaklar bilan birga ornamentining rang – barang ochilib turishiga xizmat qiladi.

XIX asrda kashtalarda ipakning to'qqiz xilidan tortib, o'n to'rt xiligacha, ba'zan undan ham ortiq ishlatilganini ko'ramiz.

Bunday rang – baranglik so'zanani jozibali bo'lishiga olib keladi.

Asosan oq fonga qizil ranglar solib tikish odatda jozibadorligini oshiradi. Gullar va doira bezaklari ham qizil ipaklar bilan tikiladi.

Ornametn yaproqlari yashil, ba'zan havorang va zangori shakllar, yaproqlarning markazlari jigarrang, och jigarrang va ko'm – ko'k ipak bilan tikiladi.

Bunday rang – baranglik tabiatdagi o'simliklarning rangiga tabiatan mos keladi. Qizil rang, to'q sariq, och qizil, to'q qizil va yashil ranglar esa ularni yashnatib turadi. Qizil rang, to'q sariq rang kabi turli yoqimli ranglarga taqqoslab tikilib chiqadi. Bular yonida "sovuq" ranglardan to'q qizil va och qizil ranglar tikiladi.

Kashtalarda qo'llaniladigan yashil ranglar ham turli – tuman bo'ladi. Ularda sarg'ish yashil va ko'kish feruza (dengiz suvi rangi) turlari bilan birga to'q havo rang, yashil ranglarning har xil qo'llanilishi mumkin. Sariq va havo ranglarning aralashuvidan hosil qilinadigan yashil rang ham har xil ko'rinishga egadir. Unda goh zarhal, goh havo ranglar tovlanib, ajoyib joziba hosil bo'ladi.

Iplarni tanlashda ranglarning yug'onlashuvini, ular bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. O'zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi.

Agar uch qirrali shisha prizmadan nur tarami utkazilsa, u tarkibiy qismlarga bulinib kurinadi, rangli yul-spektr hosil buladi.

Tabiatda ranglarning bunday qushilishini kupincha kamalakda, quyosh nuri shudring zarralaridan utishida kurish mumkin. Ko'zga kurinadigan spektr o'zluksiz o'zgara boradigan qizil, tuq sariq, sariq, yashil, zangori, kuk, binafsha ranglar qatoridan iborat. Bu ranglar bir-biridan oraliq tuslar gammasi bilan ajralgan buladi.

Agar spektr ranglarini usha tartibda doiraga joylashtirilsa, kuk- binafsha va qizil ranglar orasida tuq qizil rang buladi.

Ranglar doirasini diametri buyicha bir tomonda qizil tuq sariq va sarg'ish-yashil, ikkinchi tomonida zangori-yashil, kuk, kukish-binafsha ranglar qoladigan qilib ikkiga bulish mumkin. Doiraning qizg'ish-sariq bulagidagi ranglari iliq va ularga qarama-qarshi hamma ranglar turlarini sovuq ranglar deyiladi.

Ular ko'kintir ufq, suv, mo'z ranglarni eslatadi. Har qanday rang o'zining tusi, och va tuqligi bilan xarakterlanadi. Rang tusi-qizil, kuk, sariq va hokazo-rangdorlikdir.

19 asrning oxiri, 20 asr boshlarida rang berish tubdan o'zgardi. Badiiy san'atdan grafika uslubiga ko'proq yondoshildi. Bu esa so'zanalardagi tabiiylikni birmuncha pasaytirdi. Ipaklar analin bilan bo'yalgandan so'ng ularning nafisligi va jozibasi pasaydi, dag'al va yoqimsiz bo'lib qoldi. Hozirgi kunda ipak iplarni tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yash yana qayta yo'lga qo'yildi va bu bilan ipaklardagi jozibadorlik yanada ortdi. Ularning yaltiroqligi kashtadagi gullar va barglarning yanada jonli qiyofa kasb etish insonlarda tabiatga, atrof-muhitga, badiiy bezak san'atiga bo'lgan mehrni yanada kuchaytiradi.

Kashtada rangli ipaklar tabiiy bo'yoqlarda bo'yab tikilganda, avvalo, badiiy bezak san'atining umrboqiyligi oshadi, avloddan-avlodga meros bo'lib qolish, bir necha yuz yillar holatini saqlab qolish xususiyati kuchayadi. Chunki tabiiy bo'yoqlarga bo'yagan ipak iplari quyosh nuri, tabiat injiqliklari, tashqi muhit ta'sirlariga ancha pishiq va mustahkamdir. Tabiiy bo'yoqlarga bo'yagan ipak iplaridan tayyorlangan goh katta so'zanalar, goh kichik hajmdagi kashtachilik namunalari bo'lzin, ular inson oliv nerv sistemasiga juda ijobiy ta'sir etadi va kishiga orombaxsh tuyg'u, hayotga muhabbat, mehnatni qadrlash, Vatanni sevish, sabr-qanoat, atrofdagi odamlarga mehr-oqibatli bo'lish, qadriyatlarni ardoqlash, uni asrab-avaylash kabi hissiyotlarni shakllantiradi.

Tabiiy bo'yoq tayyorlashda eng muhim o'simliklarning qaysi turidan va ularning qanday qismidan bo'yoq olish mumkinligini bilish zarur. Misol

tariqasida bir necha tur o'simliklardan bo'yoq tayyorlash usullarini keltiramiz:

Buning uchun ipak tolalar tabiiy yo'l orqali ranglanadi. Avvalambor, mahalliy sharoitda pilla tolasini yumshatib, bu quyidagicha bajariladi:

**I.** 10-15 litr suv olinadigan qozonga 1 kg ishqor (saksovul, sho'ra, g'o'zapoya kuli) doka xaltachaga solinib, qozonga tashlanadi va suv 5-10 minut qaynatiladi. Ipak iplar kalavasi maxsus ishqorlangan 2 ta yog'och tayoqlarga joylashtirilib, qozonga solinadi va goh-gohida ular aylantirilib turiladi. Kalavalar 30-40 minut qaynatiladi. Qaynatilgan ipak ip kalavalari, avval iliq suvda 3-4 marta keyin sovuq suvda 3-4 marta ikki qo'llab, suvda aylantirilib yuviladi. Oxirida yaxshilab siqib, silkitib quritiladi.

Yumshatilgan ipak iplarini tabiiy bo'yoqlar yordamida bo'yaldi.

**II.** 1 kg ipakni sariq rangga bo'yash uchun – anor po'chog'i ni qorong'u joyga quritiladi. Quritilgan anor po'choqlarini yaxshilab yanchiladi. 500 gr yachilgan anor po'chog'i, 5 gr ishqor. Bu aralashma 40-45 minut past olovda qaynatiladi, so'ng 80 gr achchiq tosh solinadi. Jamlangan ipak solinib, 10-15 minut aralashmada saqlanadi va iplar sariq rangga bo'yaldi.

**III.** 1 kg ipakni yashil rangga bo'yash uchun – maxsus quritilgan o'sma o'simligi barglaridan 500 gr, 50-60 gr achchiq tosh, 5 gr soda, 200-300gr II yoki III temir oksidi. Aralashma 40-45 minut past olovda qaynatiladi. Qaynatilgan suv aralashmasiga iplar solinadi va 10-15 minut ikki qo'llab aylantirilib turiladi. Iplar yashil rangga bo'yaldi. Men bajargan so'zanadagi iplar rangi asosan usma, anor po'chog'i, piyoz, shotut, yong'oq po'chog'idan olingan

### **Kashtachilikda bezak buyumlari turlari**

Bezak buyumlarining turi juda ko'p. Masalan, so'zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor palak, gulko'rpa, darpech, bug'joma parda, belbog', takyapo'sh (yostiq ustiga yopiladigan), do'pp, ko'ylak, dastro'mol, joynamoz, sumka, nimcha, maxsikovush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan.

O'tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Kashtachilikda ishlataladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

**Do'ppi** – O'zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Do'ppi engil kiyim dastlab Eronda va turkiy xalqlar orasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo'lган. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan . Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak, zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarcand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'zaro xosdir. Respublikamizning barcha viloyatlarida do'ppi tikiladi. Uning iroqi, chust do'ppi, Gilam do'ppi, Chakma to'r, Qizil gul, Piltado'zi, Zardo'zi, To'ldirma deb nomladigan milliy do'ppilar bor.

Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir – biridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan 3 xil shaklga ega bo'ladi. "kuloh", "araqchin", "tus –do'ppi"

**Kuloh** – konussimon bosh kiyim. U asosan darvishlar qalpog'i. Uning matohi. Toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

**Araqchin** – sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi.

Toshkentda sharsimon do'ppilar kandaxayol, bosma, chakmato'r iroqi chok usullarida tikiladi.

**Tus do'ppi** – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi.

Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi.


Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida 8 ta xoveler chok uslubi qo'llaniladi.

Masalan, chita, zanjira, to'g'ri chok, kungura , etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan tikilgan bo'ladi.



Buxoro do'ppilaridan sidirg'a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

**Joynamoz** – erga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ishlata dilar. U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi.



Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, chopon, qiyiqcha, sholcha nuqtai nazardan pok hisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan bo'ladi. Tikish uslubi esa ko'proq yo'rma uslubidan foydalaniladi, hamda kashtado'zga ko'z tegmasligi uchun ko'proq qalampir munchoq va pichoq sopi nusxalari tasvirlanadi.

**Zardevor** – uy jihozi, u sidirg'a shoyi, baxmal, sapincha kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor o'zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi.

**Palak** – devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlardan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarning tirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi.

Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin. Shuning uchun oyni soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab o'z mahoratlarini namoyon etganlar.

Agar oyni ichi sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi.

**Kirpech** – kirpo'sh, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim – kechak ustidan yoki devorni vertikal bo'sh joylariga ilib ustki bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech qo'lida ilma kashta bilan bezatiladi. U kiyim – kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi.

**So'zana** – forscha so'zani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatishi uchun devorga ilinib qo'yiladi.

U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalaniladi, so'zana har bir xonadonda bo'lган, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan.

So'zana bu kelinlarning sepi bo'lib hisoblangan. So'zana kambag'al oilada malla oq bo'zdan, baxmaldan tikilgan. So'zana uchun kompoziston joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan bo'lib, XIX asrgacha bo'lган so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurato, Farg'ona, O'ratega, Shahrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so'zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O'zbekiston va Toshkent, Tojikiston territoriyalarida qadimdan keng tarqalgan.

**Choyshab** – forscha – tojikcha ruyi jotun chodir degan ma'noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to'shak ustidan to'shaladi.

To'shak ustidan yoziladigan choyshab kam kashtali oq surp taxmonga tushiriladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi.

**Belbog'** Nurotada qadimdan har bir qiz bo'lajak qaylig'iga, qayotasiga, sovchiga belbog' tikishi urf bo'lган.

**Qo'l ro'mol** – xuddi belbog' singari tikiladi, faqatgina o'lchami belbog'ning to'rtdan bir qismiga to'g'ri keladi.

**Zul, jul** – ot ustiga yopiladi. Trapeziya shaklida bo’lib, chetiga tukakchalar osiladi. U bigiz bilan tikiladi.

### **.Kashta tikish texnologiyasi va chok turlari**

O’zbekiston xonadonlarida asosiy bezaklaridan biri – kashtadir. Ayniqsa bayram, to’y, marosim paytlarida ular o’zbek xonadonida alohida ahamiyat kasb etadi: Kashtadagi katta gullar xonaga to’g’ri nisbatdan joylantiriladi va o’zoqdan yaxshi ko’rinishi ham e’tiborga olinadi. Qorong’iroq uylarda joylashtirilgan rangorang ipak kashtalar tovlanib turadi va insonga estetik rux bag’ishlaydi. Kelin tushadigan xonaning devorlarida bo’sh joy qoldirilmaydi. Xuddi shu xususiyat boshqa millat va elatlardan farqlanadi. “Takiyapo’sh” (Nurato, Buxoroda “bolinpush, ”Samarqand, Shaxrisabzda “yostiqpush” deb yuritiladi). Bular taxmonga (rax) yig’ilgan kurpa – yostiqlarni yopib quyiladi. Taxmon (rax) uyning turida bo’ladi.

Kashtachilik kishilarga estetik zavq bag’ishlaydi, uylarni bezatishdagi ahamiyati bilangina emas, balki asrlar davomida shakllangan odat va rasm – rusumlar sababli ham xalq orasida keng tarqalgan edi.

So’zana, takiyapush, joynamoz – inson, ayniqsa xotin – qizlar hayotidagi quvonchlik hodisalar bilan bog’liq bo’lgan. Ularni asosan kelin tomon atab tikar va beriladigan qiz sepining majburiy hamda asosiy qismini tashkil etadi.

Yosh kelin – kuyovlarga qadim – qadimdan saqlanib kelayotgan odatga kura, kashta gullariga “yomon ko’zdan saqlovchi” tumorchalar qushib tikilgan. Bitgan kashtaga atayin ayrim joylari chala qoldiriladi. Bu esa o’ziga xos ramziylikni bildiradi, yani farzandlar davom ettirishi, hayotining bog’liqligi, avloddan –avlodga utishi yoki to’y ketidan to’y kelsin va kashtalar tikilaversin,



qizim omon bulsin, boshimiz xursanchilikdan chiqmasin, degan ezgu niyatları bildiradi.

Kashtalarining hajmi turlicha buyi 230 – 280 sm va 170 -200 sm ular yaxlit manzarani kashf etadi. Takyapushlar so'zanalarga qaraganda kichikriq bo'ladi buyi 170 – 250 sm, eni 120 – 150 sm, kompazistiyasi so'zanaga uxshash bo'ladi. Joynamoz va nikoh choyshabi (joypusht) ning gullari boshqacha bo'ladi. O'rtalarida gul tikilmaydi. Mehrobli bo'ladi. Buyi 130 – 150 sm, eni 90 – 110 sm. Joynamozning oyoq tomonidan hoshiya tikilmaydi, ochiq qoldiriladi. Ruyjo: buyi 260 – 285 sm, eni 160 – 200 sm. Uning uy tomoni P- shaklidagi hoshiya bilan bezatiladi. Bug'joma : (bug'cha) kundo'zları o'rinni urab quyish yoki turli xil buyumlarni tugib quyish uchun muljallangan. Uning markazida turburchak shaklida ornament tikiladi, gohida bir burchagiga gul tikilgan bo'ladi.

Kashtachilik san'atiga ayollar o'zlarining kelajaklari bolalari va o'z baxtlari haqidagi orzu – umidlarini, tabiatga bo'lgan muhabbatlarini va go'zallikka intilishlarini singdiradilar.

Bunday kashtaning noyob san'at sifatida yaratilishi tomoshabinning baxri – dilini, insonparvarlik, hayot va tabiatni sevish, ruhiy ozuqa olishdek insonda mehr uyg'otadi.

Har bir oilada kashta tikish odat bo'lib, qizlar yoshligidan urgatilib boriladi. Ular o'zlariga onalardan chala qoldirilgan kashtalarni tikib davom ettirganlar va o'zları ham yangi kashtalar tikkanlar.

So'zanalar tikish bir yarim yil ikki yil davom etgan. Agar qizni turmushga chiqishi tezlashtirilsa, unda qarindosh – urug'lari, dugonalari va qo'shniları tuo'yga qadar tugatish maqsadida yordamga kelganlar.

Gul chizilmagan mato bulak – bulak bo'lib tikilgan va oxirida birlashtirilgan. Kashtalarga "Qalamqosh" yoki "Chizmakash" deb nom olgan talantli xalq rassom – chizmakash ayollari gul chizganlar.

Chizmalar o'lchamsiz asosan ko'z bilan chamalanib chiziladi. Har bir joy (hududning) o'ziga xosligi mavjud bo'lib, bu o'sha chizmakashning mahoratini, uning tabiatini, urab turgan muhitning qanchalik aniq va keng bilishiga bog'liq

bo'ladi. Ular asosan qadimdan qolgan chizmalarni asos qilib olsalarda, chizmalarga o'zlarining fantaziyalarini qushib borganlar. O'zbek kashtalarining o'ziga xos xususiyati hammani maftun etib olishida, ularda bir xil elementlarning uchramasligi va mexanik ravishda qaytarilmasligidadir.

XIX - asrning 80 – yillarigacha yirik dekorativ kashtalar xonaki oq “karbos” ga sariq rangli “mall” matoga tikilardi. Hozirgi kunda “Zuxro” firmasida ham oq xonaki “karbos ga, o’zlari tayyorlagan tabiiy buyoqlarda, ipak iplarda kashtalar tikish yulga quyildi. Tabiiy buyoqlarda, tayyorlash texnologiyasini tiklash va univojlantirish olib borilmoqda.

Har bir xalqning kashtado’zlik bezak san’ati qadimdan rivojlanib kelayotgan o’z an’analari, badiiy uslublari mavjud. Hamma ish qurollari : igna, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, angishvona, tug’nog’ich, qaychidir.

Kalta tikiladigan bigiz ilmoqli, yog’och dastali bo'ladi. Kashta tikish paytida barmoqlarga bigizning ilmog’i zarar etkazmasligi uchun maxsus barmoqqa kiydiriladigan asbob “noxunak” – tojikcha so’z bo’lib, “noxun” tirnoq, tirnoqqa kiydiriladigan ma’noni bildiradi.

**Bigiz** – Buxoroda “daravsh” deb yuritiladi. Daravsh bilan tikishda ipak iplar avval kalava shaklida tayyorlanadi, bo’yaladi. Bo’yalganidan so’ng kalava qayta koptok shaklida o’raladi va iplarning biri o’ngga, biri esa chapga aylantiriladi , shundan so’ng ular birlashtirilib, ikki ip qatim qilinib uraladi va kichik koptok shakliga keltiriladi.

Daravsh bilan tikilgan, tikiladigan matoning yo’zi tomonidan taxminan 30 – 40 gradus qiyalikda sukiladi va ip matoning ostidan barmoqlar yordamida berib turiladi.

**“Yo’rma chok”** bilan tikilganda tikish gul konturi bo’ylab yo’rma chok zanjiri davom ettiriladi, chetki kontur tugagach, gulning ichiga turli tasvirlar tikib chiqiladi. Katta gullarni yo’rma – yo’rma zanjiri bilan tuldirishda kashtachilar erkin uslubga suyanadilar. Buxoroning yo’rma chok san’ati ko’p qadimiy so’zanalari bilan dong taratgan.

### **Qo’lda tikiladigan kashta uslubi ikki turga bo’linadi :**

1. Bezatiladigan , tikiladigan matoning arqoq va tanda (urish) iplarini sanab kashta tikish.

2. Matoga gul – naqsh , tasvir konturi chizilib, kashta erkin tikish uslubidir.

Arqoq va tanda (urish) iplari kesishtirib to’qilgan mato (bo’z shaklida to’qilgan) ga tikiladi. Chunki bunday mato iplarini sanash qo’lay. Bizda sanama kashtaning iroqi turi tarqalgan.

Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveriladi , bunda kashta turlari ixtiyoriy, turlichalish mumkin. “Bosma” va “Yo’rma” choklarining turli xillari qo’llaniladi : ornament gullari ham shu choklarda tikiladi.

Bu chok ikki turga bo’linadi : **bosma** va **kandayol**. Ikkalasi ham bir – biriga o’xshaydi.

Tikish uslubi : uzun tomonining bir chetidan ikkinchi chetiga ip tortiladi va u kundalang chok bilan tikib chiqiladi. Keyingi ip oldingi buylama tortilgan ipga yopishtirib tortilib, xuddi

avvalgisidek eniga suriladi. Bosma usulda esa chok mayda bo'lib, deyarli perpendikulyar tikiladi va mato o'zunasiga tortilgan ipga nisbatan sal qiyshiqroq bo'ladi. Har qaysi qator choklari bir – biridan ajralib turadi. Shunday usulda tikilganda so'zananing o'ng (rost) tomonida chiroyli, nafis relefni gul hosil qilgan choklarning to'g'ri diagonal qatori hosil bo'ladi.

**“Kandaxayol”** uslubi bilan tikkanda o'zunlik xuddi bosma chokidek gullar bo'ylab utsada, sitma ip o'zun ipga kura yirik choklar bilan qiya, kundalang qilib tikiladi. Orqasida mayda choklar qatori hosil bo'ladi. Bu usul gul konturiga bir oz qavariq releflik kashf etadi .

**“Xondo'zi”** - bu uslub asosan mayda buyumlarda qo'llaniladi. Lekin ikki tomoni gulli bulishi shart bulmagan yirik devoriy kashtalar ham tikiladi.

Qarsdo'zi usuli ;

Zamindo'zi usuli ;

Hoshiyada chilllik tikish usuli ;

Katta dol tashlab tikish usuli ;

Mayda dol tashlab tikish usuli ;

Buxoro kashtachiligi kamida ikki ming yillik tarixga ega bo'lgan, bir qancha feodal – davlatlarning madaniyati, adabiyoti va san'ati sohasida etakchi markazi bo'lgan. Shaharlarning asli san'ati o'z ifodasini topgan.

Buxoro kashtachilarining asosiy belgilaridan biri ularda yo'rma chokini mahorat bilan qo'llashga va favorang, kulrang va binafsha, pushti va och sariq ranglarning kashtadagi qizil,

malina va kuk ranglar bilan uyg'unlanishidir. Kashtalarda markaz va burchaklarda burttirib ko'rinvchi yopiq kompozistiya ko'proq uchraydi. Bunda asosiy motiv davra – turunj hisoblanadi. U gulida ham ko'rinish turadi.

Davra – turunj detallari urnining turli tomonligi bilan kishini hayratda qoldiradi : ular aylana va yuldo’z kabi shakllarda bo’lib, hammasi motivni yangi variantlari bilan ayrim – ayrim bulaklarga ajratadi. Shu bilan birga ko’p qismlarga alohida chiziqlar, kvadratlar va ingichka ornamentli shakllar yordamida qushimcha bulaklarga bo’linadi : to’q zangori havorangga , sariq rang tilla rangga, qirmizi rang och malina rangga yaqin tikiladi. Shu bilan birga so’zanada qarama – qarshi ranglarning uyg’unlashishini ham kuramiz : binafsha rang sariq rang bilan, kuk rang qizil va boshqa ranglar bilan uyg’unlashadi. Har bir shaklning hoshiyasi och qizil va qora chiziqlar (ilmoqli tikishda) bilan urab tikiladi.

19- asrdan qolgan eng yaxshi kashtalar 1850 – 1870 yillarda tikilgan. Bundan oldingi 19- asrning birinchi yarmida tikilgan kashtalar haqida juda kam ma’lumotlar bor.

So’zana gulida 14 va hatto undan ko’p rangli ipak kashtalari va ular bir butun jiddiy kalorit hosil qiluvchi qirmizi malina, och kukimtir , yashil va qizil tilla ranglar ko’pchilikni hosil qiladi. Qolgan tomonlardan mayda gullarda ustalik bilan ishlatiladi. Eski so’zanalarda ipning tushib ketishiga asosiy sabablardan biri buyoqchilar anor pustidan foydalanmaganliklari ,shu sabab iplar 60 – 100 yilda tushib ketishi mumkin. Bu hol kashtaning bundan 100 yil va undan ham ko’proq vaqt utganidan darak beradi.

Ko’ppa choki turli yunalishda, ya’ni chapdan o’ngga, o’ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirg’a tikib hosil qilinadi.

Bunda yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan kichiklashib borishi mumkin. Bu chok sanama, duruya, piltado’zi nomlari bilan ataladi. Turli-tuman kashtalarda, do’ppido’zlikda keng foydalaniladi. "Ignani oldinga yunaltirib" sanchiladigan chokni tikishda, gazlama ipidan 2-3 tasi igna uchiga terib olinib, o’ngdan chapga tomon tikiladi. Undan kashta guli chiziqlarini aylantirib tikishda va gazlama yuzasini to’ldirib badiiy kashtalar tikishda foydalaniladi.

Chinda xayol-duruya choki, matoga igna qadalib bir meyorida tikib chiqiladi. Teskari o’girib yona tikib chiqiladi. Shu tariqa matoning oldi va orqa

tomonida bir xilda gul hosil qilinadi (14-rasm). Bu chok bilan ikki tomoni ham ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, rumol va boshqalarni bezashda ishlatiladi. Homdo'zi choki ikki yoqlama tekis tikiladigan bo'lib, ip tik yoki sal qiyaroq qilib tikiladi. Xom ipak bilan tikilganidan shu nom bilan atalgan. Do'ppi gullarida nozik geometrik naqshlar tikish va shu kabilarda bu chokdan ko'p foydalilaniladi. Farg'ona vodiysida, Samarqandda keng tarqalgan.

Kandaxayol chokida ip tushama tik yoki yotiq bo'ladi. Bu chokning ikki xili mavjud. Bir xilida tushama ip ustidan chatiladigan chok qiyalatib, ustma-ust tushadi, kashta tayyor bo'lganda novdadan to'qilgan savatga o'xshab ko'rindi.

Ikkinci xilida kashtado'z birinchi qatorni oldingi kashta xili tarzida tikib chiqqach, ikkinchi qatorni tikayotganda oldingi qator ostki qismidan o'tkazib tikiladi, shunday qilib, choklar tushami ip ustiga diogonal yunalishdagi ilon izi chiziqlar hosil qilib tushadi.

**Ilma chokining ikki turi mavjud:** ilma bir tarafa, ilma ikki tarafa. Ilma bir tarafa choki gorizontal yunalishida chapdan o'ngga yoki yuqoridan pastga tomon tikiladi. Ip utkazilgan igna avval o'ng tarafdan, ipni chap qo'l bosh barmog'i bilan ushlab turib, igna yuqori tomondan pastga tikkasiga sanchiladi. Ignasug'urib olinayotgan paytda ip quyib yuboriladi, bunda ip igna ostida qolishi lozim. Shu tarzda xalqa hosil bo'ladi

Aylanasiomon tikish ham mumkin Ilma ikki tarafi chokining ikki xil bajarish usuli bor:

**1 usul.** Bir tomoni chapdan o'ngga xalqa qilib tikib chiqilgach, keyin kashtani o'girib qolgan tomoni ham shu tarzda tikib chiqiladi.

**2 usul.** Ip utkazilgan igna gazlamaning o'ng tomonidan qadab, yotiq chiziq bo'y lab chap tomondan sug'urib olinadi. Chap qo'l bosh barmog'i bilan ilib orqaga surilgan ip igna ostida qolishi kerak.

Shu tarzda bir yoqlama xalqa hosil bo'ladi, so'ngra o'ng tomondan yana igna qadab, chapdan yotiq holatda sug'urib olinadi. Lekin bu ikkinchi va undan keyin o'ng tomonga uriladigan ignalarni vertikal ipdan yuqoriga avvalgi xalqa chokning ichkarisiga qadaladi, shu tarzda o'ng tomon xalqasi hosil bo'ladi.

Ilma choklari, odatda bosma choki bilan tikilgan kashtalarni hoshiyalashda ishlatiladi. Ilma choki Farg'ona vodisida ko'proq tarqalgan.

Ilma choki tikilish usuli igna bilan tikiladigan yo'rma chokiga yaqin, bunda yuqoridan pastga tomon tikiladi, igna yonma-yon ikki qatorda sanchilishi bilan yo'rma chokidan farqlanadi. Ignat goh chap qatorga, goh o'ng qatorga sanchila boradi. Avval bir xalqa hosil qilib olingach, igna xalqa ichiga sanchilib, ip ustidan olinadi, chap qo'lning bush bosib turgan ipi sanchilib chiqqan igna ortida qoldiriladi. 18- rasm.

Bu chok Chust do'ppisi bezaklarida ko'p foydalaniladi. Shoyi matolarga tikiladigan kichik kashtalarda ham ko'p qo'llaniladi.

**Iroqi chokining ikki turi mavjud:** ular terma iroqi va iroqi deb ataladi. Terma iroqi bir-biri bilan kundalang kesishadigan qiya chiziqlardan iborat bo'lib, kashtado'zlar odatda bu chokni pastdan yuqoriga qarata tikadilar.

#### **Terma iroqining ham ikki turi mavjud:**

1. Sanama iroqi. Bu chokda ishlatiladigan tur (kanva)ga yoki arqoq va urishidan ip tortib olinib, tur shakliga keltirilgan matoga kesma chiziqlar sanab gul tikiladi.
2. Chizma iroqi xili esa matoga qadam bilan chizilgan naqsh-gul ustidan tikiladi.

Iroqining boshqa turida esa mato ustiga ip tushalib, u mayda choklar bilan bir tekisda kesib chiqiladi, keyin uning yoniga yana ip tushalib, shu tarzda kesib tikib chiqiladi.

Ilma choki tikilish usuli igna bilan tikiladigan yo'rma chokiga yaqin, bunda yuqoridan pastga tomon tikiladi, igna yonma-yon ikki qatorda sanchilishi bilan yo'rma chokidan farqlanadi. Ignat goh chap qatorga, goh o'ng qatorga sanchila boradi. Avval bir xalqa hosil qilib olingach, igna xalqa ichiga sanchilib, ip ustidan olinadi, chap qo'lning bosh bosib turgan ip sanchilib chiqqan igna ortida qoldiriladi.

Bu chok Chust do'ppisi bezaklarida ko'p foydalaniladi. Shoyi matolarga tikiladigan kichik kashtalarda ham ko'p qo'llaniladi.

Bosma chokda foydalaniladigan ip yaxshi pishitilgan bulishi kerak, shunda chok gazlamada bo'rtib chiqadi. Bosma chokda kashta gullari sidirg'a qoplangan bo'ladi.

Bayram kiyimlarini badiiy bezashda qo'lida tikilgan kashtalar ilgaridan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Hozirgi paytda maxsus fabrikalarda chiroyli badiiy bezalgan tikuvchilik buyumlari keng assortimentda chiqariladi.

Qo'l kashta chok turlari ikki guruhg'a bo'linadi. Sanama choklar va oldindan chizilgan naqshlar cheti (kontur) bo'ylab tikiladigan ixtiyoriy choklar. Sanama kashtalar o'z navbatida gazlama tagiga o'tkazib tikiladigan va baxyasimon deyiladigan kashta va gazlama ustiga tikiladigan kashtalarga bo'linadi. Turli merejkalar, mayda baxya, gipyurlar, rangli chirmashma va boshqalar baxyasimon kashtaga kiradi. Gazlama tagiga o'tkazib tikiladigan bunday kashta turlari gazlama ustida bulmay, uning to'zilishini xuddi o'zgartirgandek gazlamaning o'zida bo'ladi. Gazlama ustiga tikiladigan sanama kashta choklarga iroqi, chizma chok, sanama tekis chok, o'rim chok va boshqa choklar kiradi.

Chizma kontur bo'ylab ixtiyoriy tikiladigan kashtalarda kashta gul cheti bo'ylab baxya choklarga tushiriladi yoki gulni to'dirib tikib, dona-dona, bo'rtiq qushimcha sath hosil qilinadi.

Bunday choklarga tekis choklar va oddiy choklar-suv chok, iroqisimon chok, urim chok va boshqa choklar kiradi. Kashta tikishda odatda, bir necha chok bir vaqtning o'zida ishlatiladi. Ipni gazlamaga puxtalash uchun kashta tikayotganda hech qachon ipning uchi tugilmaydi.

Kashta tikilgan buyumning teskarisi toza va batartib bulishi kerak. Ipni gazlamaning o'ngida kashta tikilgan joyga puxtalab quyiladi.

"**Zich iroqsimon**" chok (5) ham "iroqsimon" chokdek tikiladi, faqat qaviqlar zich joylashadi, ignaning sanchilib kirish joyi bilan chiqish joyi bitta bo'ladi.

"**Iroqi**" chok (7) kashta tikishda oldin bir tomonga qator qiya qaviqlar tikiladi, keyin xuddi shunday qiya qaviqlar oldingi qaviqlar ustidan ikkinchi tomonga tikib boriladi.

"**Qushaloq iroqi**" chok (8) turtta chalishgan qiya qaviqlardan iborat bo'lib, ularning hammasi bir usulda bajariladi.

"**Chala iroqi**" chok (9) shundaygina tashlab quyilgan ipni o'ng tomonidan boshlab urab tikib hosil qilinadi.

Oddiy siniq chok (10) o'ng tomondan chap tomonga ikki qator qilib tikiladi. Chokni yuqori qatordan boshlab, kashta o'ngida chap tomonga qiyalatib bitta qaviq hosil qilinadi.

Pastki qatorda kashtaning teskarisidagi qaviq uning o'rtasi yuqori qatordagi igna sanchilgan joyga to'g'ri keladigan qilib chap tomonga gorizontal tikiladi. Navbatdagi qaviq yuqori qatordagi dastlab igna sanchilgan joyga tomon yunaltirib hosil qilinadi va kashtaning teskarisidagi qaviq yana chap tomonga pastki qatordagi qaviq yirikligida gorizontal tikiladi. Ikkinci usulda (11) pastki qator qaviqlari orasi oldingi igna sanchilgan joylarning o'ziga yana igna sanchib, qaytarma qaviqlar hosil qilib tuldirliladi.

Siniq choklarning uchinchi usuli (12) ikkala qatorda ham qaytarma qaviqlar tikiladi.

Petlya chok (13) chapdan o'ngga tomon tikiladi. Qaviq gazlama chetiga perpendikulyar joylanib, kashta ipini igna tagida qoldirib tikiladi. Petlya chokda qaviqlar yirikligi bir xil oraliqda takrorlanib turadigan bo'lishi mumkin (14).

Yo'rma chokni hosil qilish uchun (20) igna gazlamani dastlab teshib chiqqan joyiga qayta sanchiladi-da, gazlamadan qaviq yirikligicha ilib, kashta ipi igna tagida halqa qilib qoldiriladi va shu halqa orasidan ip tortib olinadi. "Keng ilma" chokli kashta tikishda (21) igna gazlamadan chiqqan joyidan o'ng tomonga 3-4 ip oralig'ida sanchiladi.

"Archa chok tikish (22) "**Ilma**" chok tikishga o'xshagan bo'lib, undan ignadey gazlamaga chok markaziy chizig'inining goh o'ng, goh chap tomondaka sanchish bilangina farq qiladi. Bu chokning boshqa bir usulda (23) chok markaziy chizig'inining ikkala tomonida ham ikkitadan qaviq tushuriladi.

"**Halqa-halqa**" chok (24) alohida-alohida qaviqlar- petlyalar qatoridan iborat bo'ladi. (25)da "**halqa-halqa**" chok solib tikilgan tugarak gul tasvirlangan.

**"Kvadrat chok"** ("gul" chok) (26) Oldin dioganal bo'ylab yuqori tomonga vertikal qaviq solib, keyin dioganal bo'ylab pastga tomon kundalang qaviq solib tikiladi. Navbatdagi galda dioganal bo'ylab yuqori tomonga kundalang qaviq, keyin dioganal bo'ylab pastga tomon vertikal qaviq solinadi. Chirmashma ustki chok (27) tikish uchun oldin o'ngdan chapga tomon goh yuqorida, goh pastda gazlama chipidan 2-3 tasini ilib olib, siniq qator qaviqlar tikiladi. Keyin gazlamani ilmasdan qaviqlarning o'zinigina chirmashtirib tikiladi, (28) chirmashma ustki chok solib tikilgan uchburchaklik tasvirlangan.

**"Iroqisimon urim"** chok (29) tekis kashta chok usulida, qaviqlarni goh o'ng, goh chap tomonaga og'dirib tikiladi.

**"Iroqisimon archa"** chok (30) ham oldingi chok singari tikiladi, lekin bunda navbatdagi har qaviq o'zidan oldingi qaviqning pastki qismini bosib utadi.

**"Qushaloq ilma"** chokda (31) chok bo'ylab gazlamani ilmasdan oldin chap halqa, keyin o'ng halqa hosil qilib olinadi va igna sanchilib gazlamada shunday qiya qaviq hosil qilinadiki, bunda o'ng tomondag'i igna sanchilgan joy chap tomondag'i sanchiq chizig'iga to'g'ri kelishi, chap tomondag'i igna chiqqan joy esa, bir bahya pastroqda paydo bulishi kerak.

Qiya qaviqli tekis chok (32) pastdan boshlanib, yuqoriga tomon o'ng tomonaga qiyalatib qaviq solinadi va ip birinchi sanchiq yonidan tortib chiqariladi.

Uralma tugun chok gazlamadan chiqqan kashta ipini igna uchiga urab hosil qilinadi (33a). Ignan bilan ip hosil bo'lган spiral ichidan utkazilib, tugun gazlamaga puxtalab quyiladi (33b).

Murakkab tugunlar (35) hosil qilish uchun gazlamadan chiqqan kashta ipi gazlama teskarisidagi qaviq o'rtasiga to'g'ri keladigan qilib ignaga gazlama ipidan ilib olinadi.

Shundan keyin igna hosil bo'lган halqa ichidan o'ngdan chapga tomon kashta ipi igna uchi tagida qoladigan qilib chiqariladi. Keyin ignani xalqadan o'ng tomonaga gazlamaga sanchib, navbatdagi tugun urnidan chiqariladi.

Ko'nguralarni tekis chok bilan ("shnurcha" qilib) yo'rmashda uzunligi 0,5-1 sm uchta ustma-ust havoyi petlya hosil qilinadi va ular teki chok bilan

yo'rmalanadi (37). Ko'nguralar chirmashma petlya chok bilan (38) yuqoridagidek tikiladi, faqat tekis chok urniga chirmashma petlya chok ishlatiladi

Tekis chokli kashta (39) tikish pastki chap tomondan boshlanadi. Yuqori tomonga vertikal qaviq solib igna oldingi sanchiqdan 1-2 ip naridan chiqariladi. Bir yoqlama tekis chokli (ustki chokli) kashta o'ngdan chapga tomon goh yuqorida, goh pastda ignaga gazlama ipidan 2-3 ta ilib tikiladi (40).

Ko'yak shifon gazlamadan, kashta oq, pushti (2 xil tusda), siren rang (5 xil rangda) va kul rang (3 xil tusda) mulina iplarida (1 va 2 qavat) tikiladi. Gul va barglardan to'zilgan kashta ko'yakning dumaloq koketkasida bo'lib, ranglarining tuslari bir-biriga utadigan tekis chok va qaviqlari qiya va to'g'ri yunalgan ikki tomonlama chok, tugun chok, suv va qaytma chok bilan tikiladi. Gullari rang tuslar bir-biriga utgan tekis chok bilan tikiladi. Katta gulning gul barglarida 3 xil tusdagi sirenrang ip ishlatiladi.

Gulbarg cheti bo'ylab tikilgan birinchi qator qaviqlari 2 qavat ipda tikiladi, ikkinchi va uchinchi qator qaviqlari bir qavat ipda tikiladi. O'rtacha gullarning ustidagi doirachalar pushti rang ipda ikki tomonlama tekis chok bilan tikiladi. Mayda gullar ikki xil tusdagi pushti ipda, o'zaklari kulrang qaviqlar bilan va pushti tugunchalar bilan tikiladi. Shoxchalar va chirmoviqlar suv chok bilan barglar tekis chok va suv chok bilan, gul kosachalari to'g'ri tekis chok bilan tikiladi. Bu kashta bezagini 1,5 X 1,5 sm li kataklarda kattalashtirish kerak

## O'zbek milliy-naqsh tili alifbosи:

### Geometrik naqsh, elementlarining ramziy ma'nolar:

**Aylana**- olam ramzi.

**Baxt**-quyosh ramzi.

**Kvadrat**- dunyoning turt tomoni.

**Quyosh** - farzandi, abadiylik, yorug'lik, mustahkamlik.

**To'g'ri turtburchak** – ishonch ramzi.

**Qalampir**- har xil yomonliklardan va yomon ko'zdan asrash.

**Besh qirrali yuldo'z** - hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo.

**Anor**- ezgulik, to'qchilik ramzi.

**Oygul**- baxt iqbol ramzi.

**Yarim aylana** – baxt ramzi.

**Bodom**- baxt iqbol ramzi.

**Barg**- bahorgi uyg'onish, farzandlik.

**Romb**- ayol, ya'ni ona er ramzi.

**Zirk guli** - osoyishtalik va umr o'zoqligi.

**Olma** - muhabbat ramzi.

**Yarim oy**- islom dinining ifodasi, musulmonlik ramzi.

**Novda**- boylik va farovonlik ramzi.

**Yaproq** - bahorgi uyg'onish, navro'z ramzi.

**Quyosh** - hayot ramzi.

**Isiriq** - yomon ko'zdan asrash ramzi.

**Bulut, olov** - g'oliblik ramzi.

**Atirgul** - go'zallik ramzi.

### Qush va hayvonlarning ramziy ma'nolari.

**Sher** - mardlik, jasorat va kuchlilik ramzi.

**Chumoli** - donolik ramzi.

**Qizil rang**- g'alaba, xursandchilik, shodlik.

**Bulbul** – sadoqat ramzi.

**Xumo** - baxt keltiruvchi qush.

## X U L O S A

Kashtado'zlik san'atining nodir namunalari hozirgi kunda jahondagi ko'plab muzeylarda, shaxsiy kollektiyalarda saqlanib kelinmoqda. Peterburg, Samarqand, Buxoro, Moskvadagi Sharq madaniyati muzeylarida, G'arbiy Yevropa, jumladan Berlin xalqshunoslik muzeyi shular jumlasidandir. Bu kashtalar 19 asr oxirlarida O'zbekistondan olib ketilgan. O'zbek kashtasi yaxshi o'r ganilmagan va ular haqida juda oz ma'lumot bor.

19 asr oxirida Stokgolmda F. R. Martinning O'rta Osiyo hunarmandchilik san'ati asarlaridan yig'gan kollektiyasining ko'rgazmasi bo'ldi. Bessertning Berlin xalqshunoslik muzeyida saqlanuvchi turli xalqlarning naqshlariga bag'ishlangan albbomda Buxoro, Nurota, Shaxrisabzning 30 ta kashta detallari 3 rangli jadvalda berilgan.

Hozirgi kunda Buxoro kashtachilik san'atining asl namunalari rus davlat muzeyida (Leningrad), Sharq madaniyati muzeyida (Moskva), Tojikiston O'lakashunoslik muzeyida (Dushanbe), Tojikiston Fanlar Akademiyasi muzeyida, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida (Toshkent), O'zbekiston madaniyat va san'at tarixi Respublika muzeyida (Samarqand), tarixiy o'lakashunoslik muzeylarida (Buxoro), O'zbekiston Respublikasi dekorativ amaliy san'at muzeylarida (Toshkent) saqlanmoqda.

O'zbek xonadonining asosiy bezaklaridan biri - kashtadir. Ayniqsa, bayram, to'y, marosim paytlarida ular o'zbek xonadonida alohida ahamiyat kasb etadi. Kashtadagi katta gullar xonaga to'g'ri nisbatda joylantiriladi va uzoqdan yaxshi ko'rinishi ham e'tiborga olinadi. Qorong'iroq uylarda joylashtirilgan rango-rang ipak kashtalar tovlanib turadi va insonga estetik ruh bag'ishlaydi. Kelin tushadigan xonaning devorlarida bo'sh joy qoldirilmaydi. Xuddi shu xususiyat boshqa millat va elatlardan farqlanadi. "Takiyapo'sh" Nurotada, "bolinpo'sh" Buxoroda, "yostiqpo'sh" Samarqand va Shaxrisabzda yuritiladi. Bular taxmonga (rax) yig'ilgan ko'rpa- yostiqqlarni yopib qo'yadi. Taxmon uyning to'rida bo'ladi.

Kashtachilik kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi, uylarni bezatishdag'i ahamiyati bilangina emas, balki asrlar davomida shakllangan odat va rasm-rusmlar

sababli ham xalq orasida keng tarqalgan edi. Yirik kashtalar: So'zana, takiyapo'sh, joynamoz - inson, ayniqsa xotin-qizlar hayotidagi quvonchlik xodisalar bilan bog'liq bo'lган. Ularni asosan kelin tomon atab tikar va beriladigan qiz sepining majburiy hamda asosiy qismini tashkil qiladi. Yosh kelin-kuyovlarga qadim-qadimdan saqlanib kelayotgan odatga ko'ra, kashta gullariga "yomon ko'zdan saqlovchi" tumorchalar qo'shib tikilgan. Bitgan kashtaga atayin ayrim joylari chala qoldiriladi. Bu esa o'ziga xos ramziylikni bildiradi, ya'ni farzandlar davom ettirishi, hayotining bog'liqligi, avloddan-avlodga o'tishi yoki to'y ketidan to'y kelsin va kashtalar tikilaversin, qizim omon bo'lib, boshimiz xursandchilikdan chiqmasin degan ezgu niyatları bildiradi.

Kashtachilik san'atiga ayollar o'zlarining kelajaklari, bolalari va o'z baxtlari haqidagi orzu-umidlarini, tabiatga bo'lган muhabbatlarini va go'zallikka intilishlarini singdiradilar. Bunday kashtaning noyob san'at sifatida yaratilishi tomoshabinning baxri-dilini, insonparvarlik, hayot va tabiatni sevish, ruhiy ozuqa olishdek insonda mehr uyg'otadi.

Har bir oilada kashta tikish odat bo'lib, qizlar yoshligidan o'rgatilib boriladi. Ular o'zlariga onalardan chala qoldirilgan kashtalarni tikib davom ettirganlar va o'zları ham yangi kashtalar tikkanlar. Shofirkon va Nurotaning badiiy kashtalari bilan tanishar ekanman, naqshlari va ranglari o'xshashligiga qaramasdan, ikkita bir xildagi so'zanani topa olmayman. Har bir buyum o'zicha noyob. 20 asr davomida uydagi an'anaviy chevarlik shaklida rivoj topib kelayotgan kashtado'zlik ma'lum bir sabablarga ko'ra ommalashuv doirasi susayib, asosan respublikaning qishloqtumanlari bilan chegaralanib qolmoqda. Chevarlar an'anaviy naqshlarni takrorlagan holda, ularga umumlashtirilgan shakldagi yangi tasviriy mavzularni tatbiq qilishmoqda. Shofirkonlik chevarlar Zuhro Olloberdieva, Oliya Nurullaeva, Muhtarama Rasulova, Muhabbat Qo'chqorova, nurotalik chevarlar Bozorova Iqbol, To'raqulova Ruxsoraoylar o'ziga xos so'zanalar bilan mashhur bo'lган chevarlardir.

Hozirgi kunda Shofirkon tumanida milliy kashtachilikni rivojlantirish maqsadida kashtachi Zuxro Obloberdieva tomonidan kasb-hunar maktabi ish olib

bormoqda. Bu yerda milliy hunarmandchiligidan kashtachilik, zardo'zlik, bo'z tikuvchilik, rang tasvir, kosibchilik guruhlari ochilib, xalqimizda qadim-qadim zamonlardan beri asrab-avaylab kelingan xalq hunarmandchiligi sirlarini o'rgatishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro maktablari kashtachiligin o'rghanish asosida quyidagi xulosalarni chiqardim. Xalqning fikri va his-tuyg'ularini, voqelikni to'g'ri tushunish kashta va so'zanalardagi mukammal obrazlarda ifodalangan. Tadqiqotchi V. S. Voronovning xalq san'atiga bergen xarakteristikasini bu san'atga ham tatbiq etish mumkin. "Bu – ortiqcha so'z, bekorchi jumlalari bo'limgan aniq, qat'iy va ajoyib nutqdir".<sup>1</sup>

Barcha badiiy vositalar naqsh tuzilishi va uning dekorativ talqini, rang jihatdan hal etilishi, buyumning tikilishi va tikuv uslubi bir-biriga juda bog'liqdir. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi, boyitadi va har jihatdan ajoyib qismlari bir-biriga uzviy bo'lgan dekorativ badiiy asar yaratishga xizmat qiladi.

Chevarlarning zo'r badiiy didi, bezaklarni matoga o'z o'rnini topib joylashtirishda ham ko'rindi. Ular gazlamani haddan tashqari bezab tashlamaydilar, shu bilan birga, bekorchi joy ham bo'sh qoldirilmaydi. Shu sababli fon va bezaklar bir-biriga uzviy joylashadi va ajoyib manzara kashf etadi. Kashta bezaklari orasidagi fonning o'zi ham pannoda go'yo qo'shimcha bezakday ko'rindi. Fonning bunday aktiv roli O'rta Osiyo xalqlari dekorativ san'atiga umuman xos narsadir.

Asosan simmetrik bo'lgan so'zana bezaklari ko'pincha qat'iy geometrik simmetriyadan bir oz chetga chiqadi. Masalan, panning to'rtala burchagi har doim ham bir xil bo'lmaydi: uning bir bo'lagida qo'shimcha kichik bezaklar bo'lishi mumkin, boshqa bo'lagidagi bezaklar esa unga uncha hamohang bo'lmaydi. Bezaklarning bunday erkin joylashtirilishi o'simliksimon chiziqlarning tabiiy ritmi kabi kashtalarga alohida joziba beradi. Har bir gulni har safar erkin chiziqlarda berishga urinishda ham bu jonlilik, joziba sezilib turadi. Shakllari jihatidan sodda bo'lgan bezaklar ko'pincha bir xil chiziqlarga ega bo'ladi. Shuning

uchun bezaklarning rang-barangligi ikkita bir xil detalning turlicha ishlanishi natijasida hosil qilinadi. Kashta asosiy badiiy vosita bo’lgan ipaklar, shuningdek, tikuv uslubi asosida amalga oshiriladi. Kashta uslubi asarning badiyiligiga bevosita ta’sir etadi. Matodagi choklarning o’zi ham rangli ipak bilan birga kuchli dekorativ ta’sirchanlikni oshiradi. Bunda kashta tikish mahoratigina emas, balki badiiy did, nafosat, ipaklarning yaxshi yigirilganligi, rangi va sifati ham ahamiyatga ega. 19 asrdagi eng yaxshi kashta namunalarining o’chmas jozibasi va o’ziga xosligi ularning uzviy joylashtirilgan gullar ritmida, har bir kashta kompozitsiyasini kutilmaganda yangicha hal etilishida, yorqin, hayotbaxshranglarning uyg’unlashishi va mahorat bilan tikilishidadir. Yuzlab, minglab so’zanalarni tomosha qilganda ham, ikkita aynan bir xil asar uchratilmaydi. Ularning har biri o’zicha mustaqil bo’ladi.

## **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Karimov I. A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.;O'zbekiston,1998.
2. Zuxro Obloberdieva «Buxoro kashtachilik san'ati» Buxoro-2002
- 3.Bulatov S. O'zbekiston xalk amaliy bezak san'ati-T.: Mehnat, 1991
4. Z.Ahmedova "Buxoro kashtalarida Hirot naqshlari" "San'at" № 4 2002 yil.
5. Goncharova P.A. Buxoro Zardo'zlik san'ati. T.: F.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashiriyoti , 1986. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. T.: Ukituvchi, 1994 Jumaev K. Sitorai Moxi Xossa. D: Buxoro nash, 1999. Naymov N. Buxorai Sharif - B.: Buxoro nash, 1997.
6. Mahkamova S.M. O'zbekiske abrov'e tkani. Tashkent. 1963.
7. Mahkamova S.M. K istoriyu tkachestva v Sredniy Azii. V kn.: Xudojestvennaya kultura Sredniy Azii IX-XIII vv. Tashkent.1983.
- 8.M. Cheplovččkaya "Uzbekistan suzanasi" Toshkent – 1963 yil.
- 9.K.Tursunaliev "Katalog výshevok Uzbekistana" 19 20 y
- . 10. S. Maxkamova "O'zbekiston kashtachilik san'ati" Toshkent – 1970 yil.



